nisbat $f(x)$ funksiyaning x_0 dan $x_0 + \Delta x_0$ gacha bo'lgan oraliqda o'zgarishining o'rtacha tezligini ifodalaydi. Bu o'rtacha tezlik ham x_0 ga, ham Δx_0 ga bog'liq bo'lishi ko'rinish turibdi. Endi Δx_0 ni nolga intiltirib, $f(x)$ funksiyaning $x = x_0$ nuqtada o'zgarishining oniy tezligini (agar bu limit mavjud bo'lsa) to'amiz:

$$\lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{\Delta y_0}{\Delta x_0} = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{f(x_0 + \Delta x_0) - f(x_0)}{\Delta x_0}$$

Berilgan funksiya uchun bu limit x_0 ga bog'liq va berilgan $f(x)$ funksiyadan $x = x_0$ nuqtada, olingan hosila deyiladi. x_0 ning har bir qiymatiga $f(x)$ funksiyaning oniy o'zgarish tezligini o'z qiymati mos keladi. SHuning uchun

$$\lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{f(x_0 + \Delta x_0) - f(x_0)}{\Delta x_0}$$

limit (agar bu limit mavjud bo'lsagina) ixtiyoriy x nuqtada $f(x)$ funksiyasining oniy o'zgarish tezligini ifodalaydi. Bu argumentning yangi funksiyasi deb qarash mumkin. Bu yangi funksiya berilgan $f(x)$ funksiyadan olingan hosila deyiladi. Ko'oincha « $f(x)$ funksiyadan olingan hosila» ifodasida «oligan» so'zini tashlab to'g'ridan-to'g'ri « $f(x)$ funksiyasining hosilasi» deyilaveradi. Matematikada hosilalar turlicha belgilanadi. Biz y' va $f'(x)$ kabi belgilashlardan foydalanamiz:

$$y' = f'(x) = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} \quad \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{f(x + \Delta x) - f(x)}{\Delta x}$$

bir necha misollar qaraymiz.

Misol: $f(x) = C$, $f(x + \Delta x) = C$

SHuning uchun

$$\Delta y = f(x + \Delta x) - f(x) = C - C = 0, \text{ demak}$$

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = \frac{0}{\Delta x} = 0$$

SHunday qilib,

$$y' = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} 0 = 0$$

O'zgarmas sonning hosilasi nolga teng.

Misol: $f(x)$ funksiyaning hosilasini to'ing.

Bunday yozamiz,

$$f(x) = x \quad f(x + \Delta x) = x + \Delta x$$

shuning uchun

$$\begin{aligned} \Delta y &= f(x + \Delta x) - f(x) = x + \Delta x - x = \Delta x \\ \frac{\Delta y}{\Delta x} &= \frac{\Delta x}{\Delta x} = 1 \end{aligned}$$

bundan kelib chiqadi:

$$y' = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} 1 = 1$$

$f(x) = x$ funksiyaning hosilasi 1 ga teng.

Misol: $f(x) = x^2$ funksiyaning hosilasini to'ing.

Bunday yozamiz:

$$f(x) = x^2 \quad f(x + \Delta x) = (x + \Delta x)^2$$

shuning uchun:

$$\Delta y = f(x + \Delta x) - f(x) = (x + \Delta x)^2 - x^2 = (x^2 + 2x \cdot \Delta x + \Delta x^2) - x^2 = 2x \cdot \Delta x + \Delta x^2$$

demak,

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = 2x + \Delta x$$

shunday qilib,

$$y' = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} (2x + \Delta x) = \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} 2x + \lim_{\Delta x_0 \rightarrow 0} (\Delta x) = 2x + 0 = 2x$$

$f(x) = x^2$ funksiyaning hosilasi $2x$ ga teng.

Oldingi ikki misoldan farqi shundaki, bunda hosila x ga bog'liqdir.

$f(x)$ funksiyadan olingan hosilaning $x = a$ dagi qiymati $f'(a)$ kabi belgilanadi.

Masalan: agar $f(x) = x^2$ bo'lsa, $f'(x) = 2x$ shuning uchun

$$f(0) = 2 \cdot 0 = 0$$

$$f(1) = 2 \cdot 1 = 2$$

tenglama $x = 2, y = 4$ ni qo'yib $4 = 8 + b$ ni hosil qilamiz. Bundan $b = -4$. SHunday qilib izlangan urinmaning tenglamasi $y = 4x - 4$

shunday qilib hosilaning geometrik maonosi:

Funksiya hosilasining nuqtadagi qiymati funksiya grafigiga shu nuqtada o'tkazilgan srinmasining burchak koeffisientiga teng. $f'(x) = tg\alpha$

Adabiyotlar.

1. A. Normetov "Trigonometriya".
2. A.U.Abdurahimov va boshqalar Algebra va matematik analiz asoslari II qism. Toshkent 2005yil
3. A.Melikulov, o. Qurbonov, o.Ismoilov Matematika II qism KXK uchun o`quv qo`llanma 2004 yil
4. Algebra 9 sinf SH.Alimov, O.Xolmumamedov, M.Mirzaahmedov

Mustaqil to'shiqliar.

1. Trigonometrik funksiyani xossalarni yozish bayon etish.
2. Trigonometrik funksiya grafigini mashtabga roya qilgan hoda chizib kelish.

Matematika va uni o`qitish metodikasi fani bo`yich maoruza mashg`ulotlar texnologiyasi.

Mavzu	Akademik litsey va KXK matematikasida boshlang`ich funksiya va integral tushunchasini kiritish va ularni tadbiqlarini o`qitish metodikasi
Vaqti 2 soat	Talabalar soni: 55-0 nafar
O`quv mashg`uloti shakli Maoruza	Vizual Maoruza
O`quv mshg`uloti rejasi	1. Boshlang`ich funksiya tushunchasining akademik litsey algebra va analiz asoslari

	<p>kursida o`rni.</p> <p>2. Boshlang`ich funksiya haqida tushuncha berish.</p> <p>Boshlang`ich funksiya to'oish formulalari bilan tanishtirish.</p>
O`quv mashg`ulotining maqsadi	<p>1. Boshlang`ich funksiya yo`llari bilan talabalarni tanishtirish,</p>
<p>pedagogic vazifalari:</p> <p>1. Boshlang`ich funksiya va integral mavzusini AL va KXK matematik kursidagi o`rnini yoritish.</p> <p>2. Boshlang`ich funksiya va integral tushunchasini kiritishni yo`llarini bayon etish</p> <p>3. AL va KXK boshlang`ich funksiya va integral mavzusini o`qitishning metodik xususiyatlarini ochish</p>	<p>O`quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talaba : Boshlang`ich funksiya va integral tushunchasi elementlarni kiritishga yo`llanma berish.</p> <p>Boshlang`ich funksiya va integral yordamida funksiya grafigini chizishga tadbiq qila olishga ko`nikmani shakillantirish.</p>
O`qitish uslubi va texnikasi	Visual maoruza. BBB jadval, bayon qilish, insert texnikasi asosida matin bilan ishslash aqliy xujum
O`qitish vositalari	Maoruzalar matni, oroektir, tarqatma material.
O`qitish shakli	Jamoada ishslash
O`qitish sharoitlari	proektor, komoyuter bilan jixozlangan avditoriya

Akademik litsey va kasb xunar kolej matematika kursida boshlang`ich funksiya va integral tushunchasini kiritish metodikasi.

Mashg`ulotning texnologik kartasi.

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1.Bosqich. Kirish(15min)	<p>1.1Mavzu, uning maqsadi, o`quv mashg`ulotida kutilgan natijalar maolum qilinadi.</p> <p>1.2 Talabalarni eotiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun BBB jadvalni tarqatiladi.</p> <p>1.3O`tilgan mavzu yuzasidan aqliy hujum o`tkazish</p>	<p>1.1 eshitadi, yozib oladi</p> <p>1.2 BBB jadvalni to`ldiradi</p> <p>1.3O`tilgan mavzu yuzasidan savollarga javob beradi</p>
2.Bosqich asosiy (55 min)	<p>2.1 VVizual materiyallardan foydalangan xolda Boshlang`ich funksiya va integral tushunchasini AL va KXK matematikasida o`rgatish bayon etish.</p> <p>2.2 Boshlang`ich funksiya va integral</p>	<p>2.1 chizmalar asosida axborot qabul qilinadi.</p> <p>2.2savollar berib asosiy joylari yozib olinadi.</p> <p>2.3 eslab qoladi, yozadi</p>

	<p>tushunchasi elementlarni kiritishga yo`llanma ko`rsatish.</p> <p>2.3 AL va KXX matematikasida Boshlang`ich funksiya va integral tushunchasini o`qitishning metodik xususiyatiga talabalarning etiborini qaratish</p> <p>2.4 Boshlang`ich funksiya va integral tushunchasining xossalari ni inobatga olgan xolda, ularning grafigini chizishga o`rgatiladi.</p>	<p>2.4o`qituvchining harbir savoliga javob berishga harakat qilinadi</p> <p>2.5 to'shiriqlarni mustaqil bajaradi.</p>
3.Bosqich yakuniy (10 min)	<p>talabalning etiborini asosiy masalalarga qaratish, mavzuga yakun yasash. BBB jadvalni yig`ishtirib olish faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantirish mustaqil to'shiriqlarni berish</p>	<p>3.1 aniq eshitadi, xulosa chiqaradi, to'shiriqlarni yozib oladi</p>

Aqliy hujum.

1. O`qitish merodlari haqida maolunot bering?
2. Muammoli metod nima?
3. Evrietik taolim metodi?
4. Dasturlashgan taolim metodi?
5. Didaktaj orinsiolari deganda nimani tushunas?
6. Ketma-ketlik prinsipi?
7. Izchilllik prinsipi?
8. ouxta- o`zlashtirishlar prinsipi?
9. Taolim va tarbiyani birgalikda olib boorish prinsipi?
10. Ilmiylik prinsipi?
11. Amaliy yo`langanlik prinsipi?
12. Tushunarilik prinsipi?
13. Faollik prinsipi?
14. Mustahkamlilik prinsipi?
15. Ko`rsatmalilik prinsipi?
16. Individual yondashu prinsipi?

ILOVA

Akademik litsey va KXK matematikasida boshlang`ich funksiya va integral tushunchasini kiritish va ularni tadbiqlarini o`qitish metodikasi

3. Boshlang`ich funksiya tushunchasining akademik litsey algebra va analiz asoslari kursida o`rni.

4. Boshlang`ich funksiya haqida tushuncha berish.

Boshlang`ich funksiya to`oish formulalari bilan tanishtirish.

Nuqtaning to'g'ri chiziq bo'ylab harakatini ko'raylik. Harakat boshlangandan o'tgan t vaqt ichida nuqta $s(t)$ yo`lni o'tgan bo`lsin. U holda $v(t)$ oniy tezlik $s(t)$ funksiyaning hosilasiga teng, yaoni $v(t) = s'(t)$.

Amaliyotda teskari masala ham uchraydi: nuqtaning $v(t)$ harakat tezligi berilgan, uning bosib o'tgan $s(t)$ yo`lini to'ing, yaoni shunday $s(t)$ funksiyani to'ish kerakki, uning hosilasi $v(t)$ ga teng bo`lsin. $S(t) = v(t)$ bo`lgan bunday $s(t)$ funksiyani $v(t)$ funksiyaning **boshlang`ich funksiyasi** deyiladi.

Masalan, agar $v(t) = at$ (bunda a — berilgan son) bo`lsa, u holda $s(t) = \frac{at^2}{2}$ funksiya $v(t)$

funksiyaning boshlang`ich funksiyasi bo`ladi, chunki $s'(t) = \left(\frac{at^2}{2} \right)' = at = v(t)$

Biror oraliqdagi barcha x lar uchun $F'(x)=f(x)$ bo`lsa, $F(x)$ funksiya shu oraliqda $f(x)$ funksiyaning boshlang`ich funksiyasi deyiladi.

Masalan, $F(x)=\sin x$ funksiya $f(x)=\cos x$ funksiyaning boshlang`ich funksiyasi bo`ladi, chunki $(\sin x)'=\cos x$, $F(x)=\frac{x^4}{4}$ funksiya $f(x)=x^3$ funksiyaning boshlang`ich funksiyasi bo`ladi, chunki $\left(\frac{x^4}{4}\right)'=x^3$.

1-masala. $\frac{x^3}{3}$, $\frac{x^3}{3}+1$, $\frac{x^3}{3}-4$ funksiyalarning hammasi ayni bir $f(x)=x^2$ funksiyaning boshlang`ich funksiyalari bo`lishini isbotlang.

Isboti: 1) $F_1(x)=\frac{x^3}{3}$ deb belgilaymiz, u holda $F_1'(x)=3 \cdot \frac{x^2}{3}=x^2=f(x)$.

2) $F_2(x)=\frac{x^3}{3}+1$ deb belgilaymiz, u holda $F_2'(x)=\left(\frac{x^3}{3}+1\right)'=\left(\frac{x^3}{3}\right)'+(1)'=x^2=f(x)$.

3) $F_3(x)=\frac{x^3}{3}-4$ deb belgilaymiz, u holda

$$F_3'(x)=\left(\frac{x^3}{3}-4\right)'=\left(\frac{x^3}{3}\right)'-(4)'=x^2=f(x).$$

Umuman, har qanday $\frac{x^3}{3}+C$ (bunda S — o'zgarmas son) funksiya x^2 funksiyaning boshlang`ich funksiyasi bo`ladi. Bu xulosa o'zgarmas sonning hosilasi nolga tengligidan kelib chiqadi. Bu misol berilgan funksiya uchun uning boshlang`ich funksiyasi bir qiymatli aniqlanmasligini ko'rsatadi.


$F_1(x)$ va $F_2(x)$ ayni bir $f(x)$ funksiyaning boshlang`ich funksiyalari bo`lsin. U holda $F_1(x)=f(x)$ va $F_2(x)=f(x)$. Ularning $g(x)=F_1(x)-F_2(x)$ ayirmasining hosilasi nolga teng, chunki

$$g'(x)=F_1'(x)-F_2'(x)=f(x)-f(x)=0.$$

Agar biror oraliqda $g'(x)=0$ bo`lsa, u holda bu oraliqning har bir nuqtasida $u=g(x)$ funksiya grafigiga o'tkazilgan urinma Ox o'qiga oarallel bo`ladi. SHuning uchun $u=g(x)$ funksiya grafigi Ox o'qiga oarallel to'g'ri chiziq, yaoni $g(x)=S$ bo`ladi, bunda S — biror o'zgarmas. $g(x)=C$, $g(x)=F_1(x)-F_2(x)$ tengliklardan ko'rindik, $F_1(x)=F_2(x)+S$.

SHunday qilib, $F(x)$ funksiya biror oraliqda $f(x)$ funksiyaning boshlang`ich funksiyasi bo`lsa, u holda $f(x)$ funksiyaning barcha boshlang`ich funksiyalari quyidagi ko'rinishda yoziladi: $F(x)+C$, bunda S — ixtiyoriy o'zgarmas.

Berilgan $f(x)$ funksiya barcha boshlang`ich funksiyalarining grafiklarini ko'raylik. Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning boshlang`ich funksiyalaridan biri bo`lsa, u holda bu funksiyaning istalgan boshlang`ich funksiyasi $F(x)$ ga S o'zgarmasni qo'shish bilan hosil qilinadi: $F(x)+S$. $u=F(x)+S$ funksiyaning grafigi $u=F(x)$ funksiya grafigini Oy o'q



bo'ylab siljitishdan hosil qilinadi. S ni tanlash bilan boshlang'ich funksiya grafigini berilgan nuqta orqali o'tishiga erishish mumkin.

2-masala. $f(x)=x$ funksiya uchun grafigi (2;5) nuqta orqali o'tadigan boshlang'ich funksiyani to'ing.

Echilishi. $f(x) = x$ ning barcha boshlang'ich funksiyalari $F(x) = \frac{x^2}{2} + C$ formuladan to'iladi. chunki $F'(x) = x$. SHunday C sonni to'amizki, $y = \frac{x^2}{2} + C$ funksiyaning grafigi (2; 5) nuqtadan o'tsin. $x = 2$, $u = 5$ larni qo'yib, $5 = \frac{2^2}{2} + C$ ni hosil qilamiz, bundan $S = 3$. Demak, $F(x) = \frac{x^2}{2} + 3$

3-masala. Istalgan haqiqiy $r \neq -1$ son uchun $F(x) = \frac{x^{p+1}}{p+1}$ funksiya $x > 0$ oraliqda $f(x) = x^p$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya ekanini isbotlang.

Echilishi. $(x^{p+1})' = (p+1)x^p$ bo`lgani uchun $\left(\frac{x^{p+1}}{p+1}\right)' = \frac{(x^{p+1})'}{p+1} x^p$ bo`ladi.

Masalan,

a) $\frac{1}{x^2}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi $\frac{x^{-2+1}}{-2+1} = -\frac{1}{x}$ ga teng;

b) \sqrt{x} funksiyaning boshlang'ich funksiyasi $\frac{x^{\frac{1}{2}+1}}{\frac{1}{2}+1} = \frac{2}{3}x^{\frac{1}{2}}$ ga teng.

2. Boshlang`ich funksiyalarni to'ishning uch qoidasi

Berilgan funksiya uchun boshlang`ich funksiyani to'ish amali integrallash deyiladi (latincha untegrate — tiklash).

Baozi funksiyalar uchun boshlang`ich funksiyalar jadvalini hosilalar jadvalidan foydalanib tuzish mumkin:

№	Funksiya	Boshlang`ich funksiya	№	Funksiya	Boshlang`ich funksiya
1	$x^o, o \neq -1$	$\frac{x^{p+1}}{p+1} + C$	4	$\cos x$	$\sin x + C$
2	$\frac{1}{x}, x > 0$	$\ln x + C$	5	$\frac{1}{\cos^2 x}$	$\operatorname{tg} x + C$
3	$\sin x$	$-\cos x + C$			$-\operatorname{ctg} x + C$

SHuningdek, inregrallash qoidalari differensiallash qoidalari yordamida to'ish mumkin.

1. Agar F funksiya f uchun boshlang`ich funksiya, G esa g uchun boshlang`ich funksiya bo`lsa, u holda $F+G$ yig`indi $f+g$ uchun boshlang`ich funksiya bo`ladi.

Haqiqatan, $F'_o = f$ va $G'_o = g$ bo`lgani sababli yig`indining hosilasini hisoblash qoidasiga binoan ushbuga ega bo`lamiz:

$$(F+G)_o = F'_o + G'_o = f + g.$$

2. Agar F funksiya f uchun boshlang`ich funksiya, k esa o`zgarmas bo`lsa, kF funksiya kf uchun boshlang`ich funksiya bo`ladi.

Haqiqatan, o`zgarmas ko`oaytuvchini hosila belgisidan tashqariga chiqarish mumkin; shu sababli $(kF)'_o = kF'_o = kf$.

3. Agar $F(x)$ funksiya f(x) uchun boshlang`ich funksiya, k va b o`zgarmaslar (bunda $k \neq 0$) bo`lsa, $\frac{1}{k} F(kx+b)$ funksiya f(kx+b) funksiya uchun boshlang`ich funksiya bo`ladi.

Haqiqatan, murakkab funksiyaning hosilasini hisoblash qoidasiga ko`ra ushbuga egamiz:

$$\left(\frac{1}{k} F(kx+b) \right)' = \frac{1}{k} F'(kx+b) \cdot k = f(kx+b)$$

1-masala. $f(x)=2x^5-3x^2$ funksiyaning boshlang`ich funksiyalaridan birini to'ing.

$$\text{Echilishi. } F(x) = 2 \cdot \frac{x^{5+1}}{5+1} - 3 \cdot \frac{x^{2+1}}{2+1} = \frac{1}{3}x^6 - x^3. \text{ Javob: } F(x) = \frac{1}{3}x^6 - x^3.$$


2-masala. $f(x)=2x+3$ funksiya uchun grafigi M(1;2) nuqtadan o`tadigan boshlang`ich funksiyani to'ing.

Echilishi. $F(x)=x^2+3x+C$; $1^2+3 \cdot 1+C=2$; $C=-2$:

$$F(x)=x^2+3x-2.$$


$$\text{Javob: } F(x)=x^2+3x-2.$$

3-masala. $f(x)=\sin x \cdot \cos x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyalaridan birini to'ing.
Echilishi. Ko`oaytmaning boshlang'ich funksiyasini to'ish qoidasi bo`lmashtirish uchun funksiya ifodasining shaklini almashtiramiz: $f(x)=\sin x \cdot \cos x=0,5 \sin 2x$. Endi 2- va 3-qoidalarni qo`llaymiz: $F(x)=0,5 \cdot 0,5(-\cos 2x)=-0,25 \cos 2x$.



Rasmda tasvirlangan shaklni ko`raylik. Bu shakl quyidan Ox o`qdagi $[a; b]$ kesma bilan, yuqorida musbat qiymat qabul qiladigan $y=f(x)$ uzluksiz funksiyaning grafigi bilan, yon tomonlardan esa $x=a$ va $x=b$ tog`ri chiziqlarning kesmalari bilan chegaralangan. Bunday shakl **egri chiziqli traoetsiya** deyiladi.

Egri chiziqli traoetsyaning S yuzini $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi yordamida qanday hisoblash mumkinligini aniqlaymiz.



$[a; x]$ asosli egri chiziqli traoetsyaning yuzini $S(x)$ deb belgilaymiz (3-rasm), unda x shu $[a; b]$ kesmadagi istalgan nuqta: $x = a$ bo`lganda $[a; x]$ kesma nuqtaga aylanadi, shuning uchun $S(a) = 0$; $x=b$ da $S(b) = S$. $S(x)$ ni $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo`lishini, yaoni $S'(x) = f(x)$ ekanini ko`rsatamiz.

► $S(x+h) - S(x)$ ayirmani ko`raylik, bunda $h > 0$ ($h < 0$ hol ham xuddi shunday ko`rildi). Bu ayirma asosi $[x; x+h]$ bo`lgan egri chiziqli traoetsyaning yuziga teng (4-rasm). Agar h son kichik bo`lsa, u holda bu yuz taqriban $f(x) \cdot h$ ga teng, yaoni $S(x+h) - S(x) \approx f(x) \cdot h$.

Demak, $\frac{S(x+h) - S(x)}{h} \approx f(x)$. Bu taqrifiy tenglikning

chao qismi $h \rightarrow 0$ da hosilaning taorifiga ko`ra $S'(x)$ ga intiladi, yaqinlashish xatoligi esa $h \rightarrow 0$ da istalgancha kichik bo`la boradi. SHuning uchun $h \rightarrow 0$ da $S'(x) = f(x)$ tenglik hosil bo`ladi. Bu esa $S(x)$ ning $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi ekanini bildiradi. ♦

$f(x)$ funksiyaning istalgan boshqa $F(x)$ boshlang'ich funksiyasi $F(x)$ dan o`zgarmas songa farq qiladi, yaoni

$$F(x) = S(x) + S \quad (1)$$

Bu tenglikdan $x=a$ da $F(a)=S(a)+S$ ni olamiz. $S(a)=0$ bo`lgani uchun $C=F(a)$ va (1) tenglikni quyidagicha yozish mumkin:

$$S(x) = F(x) - F(a).$$

Bundan $x = b$ da

$$S(b) = F(b) - F(a)$$

ni to`amiz.

Demak, **egri chiziqli traoetsyaning yuzini** quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$S = F(b) - F(a)$

(2)

bunda $F(x)$ — berilgan $f(x)$ funksiyaning istalgan boshlang'ich funksiyasi.

SHunday qilib, egri chiziqli traoetsiyaning yuzini hisoblash $f(x)$ funksiyaning $F(x)$ boshlang'ich funksiyasini to'ishga, yaoni $f(x)$ funksiyani integrallashga keltiriladi.

$F(b)-F(a)$ ayirma $f(x)$ funksiyaning $[a;b]$ kesmadagi integrali deyiladi va bunday belgilanadi: $\int_a^b f(x)dx$ (o'qilishi: „ a dan b gacha integral ef iks de iks“), yaoni

$$\int_a^b f(x)dx = F(b) - F(a) \quad (3)$$


(3) formulani differensial va integral hisob asoschilari sharafiga Nyuton — Leybnis formulasi deb ataladi. (2) va (3) formuladan quyidagini olamiz:

$$S = \int_a^b f(x)dx \quad (4)$$

Integral tarixan egri chiziqlar bilan chegaralangan *shakllarning yuzini*, xususan, egri chiziqli traoetsiyaning yuzini *hisoblash munosabati bilan kelib chiqqan*.

Quyidagi rasmda tasvirlangan egri chiziqli traoetsiyani ko'raylik.

Bu rasmda traoetsiyaning asosi bo'lган $[a ; b]$ kesma x_1, x_2, \dots, x_{n-1} nuqtalar bilan n ta kesmaga (teng bo'lishi shart emas) bo'lingan. Bu nuqtalardan vertikal



to'g'ri chiziqlar o'tkazilgan. Birinchi $[x_0;x_1]$ kesmada ixtiyoriy c_1 nuqta tanlangan va bu kesmada balandligi $f(c_1)$ bo'lган to'g'ri to'rtburchak yasalgan; ikkinchi $[x_1; x_2]$ kesmada c_2 nuqta tanlangan va bu kesmada balandligi $f(c_2)$ bo'lган to'g'ri to'rtburchak yasalgan va hokazo. Berilgan egri chiziqli traoetsiyaning yuzi yasalgan to'g'ri to'rtburchaklar yuzlari yig'indisiga taqriban teng:

$$S_n = f(c_1)\Delta x_1 + f(c_2)\Delta x_2 + f(c_3)\Delta x_3 + \dots + f(c_n)\Delta x_n \quad (5)$$

bunda Δx_i - bo'linish kesmalarining uzunligi, yaoni $\Delta x_1 = x_1 - x_0$, $\Delta x_2 = x_2 - x_1$ va hokazo. SHunday qilib, egri chiziqli traoetsiyaning S yuzini taqriban (5) formula orqali hisoblash mumkin, yaoni $S \approx S_n$.

(5) yig'indini $f(x)$ funksiyaning $[a; b]$ kesmadagi integral yig'indisi deyiladi. Bunda $f(x)$ funksiya $[a; b]$ kesmada uzluksiz va istalgan qiymatni (musbat, manfiy va nolga teng) qabul qila oladi, deb taxmin qilamiz. Agar $n \rightarrow \infty$ va bo'linish kesmalari uzunliklari nolga intilsa, u holda S_n integral yig'indi biror songa intiladi, ana shu sonni $f(x)$ funksiyaning $[a;b]$ kesmadagi integrali deyiladi va

$$\int_a^b f(x)dx$$

ko'rinishda belgilanadi.

Bunda ham Nyuton — Leybnis formulasi to'g'ri, yaoni

$$\text{bo`ladi. } \int_a^b f(x)dx = F(b) - F(a)$$

1-masala. $\int_0^3 x\sqrt{x+1}dx$ integralni hisoblang.

$$\begin{aligned} \blacktriangle \quad & \int_0^3 x\sqrt{x+1}dx = \int_0^3 (x+1-1)\sqrt{x+1}dx = \int_0^3 ((x+1)^{\frac{3}{2}} - (x+1)^{\frac{1}{2}})dx = \\ & = \left(\frac{2}{5}(x+1)^{\frac{5}{2}} - \frac{2}{3}(x+1)^{\frac{3}{2}} \right) \Big|_0^3 = \left(\frac{2}{5} \cdot 32 - \frac{2}{3} \cdot 8 \right) - \left(\frac{2}{5} - \frac{2}{3} \right) = 7\frac{11}{15}. \quad \blacktriangledown \end{aligned}$$

2-masala. $\int_{-\pi}^{\pi} \sin^2 x dx$ integralni hisoblang.

$$\begin{aligned} \blacktriangle \quad & \int_{-\pi}^{\pi} \sin^2 x dx = \int_{-\pi}^{\pi} \frac{1-\cos 2x}{2} dx = \frac{1}{2} \int_{-\pi}^{\pi} (1-\cos 2x) dx = \frac{1}{2} \left(x - \frac{1}{2} \sin 2x \right) \Big|_{-\pi}^{\pi} = \frac{1}{2} ((\pi - 0) - (-\pi - 0)) = \pi. \quad \blacktriangledown \end{aligned}$$

3-masala. $\int_0^6 |x-3| dx$ integralni hisoblang.

\blacktriangle [0;3] kesmada $x-3 \leq 0$ va [3;6] kesmada $x-3 \geq 0$ ekanidan foydalanib, berilgan integralni ikkita integralning yig`indisi shaklida quyidagicha yozib olamiz, so`ngra uni hisoblaymiz:

$$\int_0^6 |x-3| dx = \int_0^3 |x-3| dx + \int_3^6 |x-3| dx = \int_0^3 (-(x-3)) dx + \int_3^6 (x-3) dx = \int_0^3 (-x+3) dx + \int_3^6 (x-3) dx =$$

$$= \left(-\frac{x^2}{2} + 3x \right) \Big|_0^3 + \left(\frac{x^2}{2} - 3x \right) \Big|_3^6 = ((-4,5+9)-0) + ((18-18)-(4,5-9)) = 4,5 + 4,5 = 9. \quad \blacktriangledown$$

4-masala. $\int_{0,5}^1 e^{2x-1} dx$ integralni hizoblang.

$$\blacktriangle \quad \int_{0,5}^1 e^{2x-1} dx = \frac{1}{2} e^{2x-1} \Big|_{0,5}^1 = \frac{1}{2} (e^{2 \cdot 0,5 - 1} - e^{2 \cdot 1 - 1}) = \frac{1}{2} (e^0 - e^1) = \frac{1}{2} (1 - e). \quad \blacktriangledown$$

5-masala. $\int_1^2 \left(\frac{1}{x^2} + \frac{1}{x} \right) dx$ integralni hisoblang.



$$\int_1^2 \left(\frac{1}{x^2} + \frac{1}{x} \right) dx = \int_1^2 \left(x^{-2} + \frac{1}{x} \right) dx = \left(\frac{x^{-2+1}}{-2+1} + \ln x \right) \Big|_1^2 = \left(-\frac{1}{x} + \ln x \right) \Big|_1^2 = \left(-\frac{1}{2} + \ln 2 \right) - \left(-\frac{1}{1} + \ln 1 \right) = \frac{1}{2} + \ln 2$$




Yuzalarni integrallar yordamida hisoblash.

1-masala. Ox o`qi, $x=-1$, $x=2$ chiziqlar va $y=9-x^2$ oarabola bilan chegaralangan egri chiziqli traoetsiyaning yuzini hisoblang.

▲ $y=9-x^2$ grafigini yasymiz va berilgan traoetsiyani tasvirlaymiz. Izlanayotgan S yuza $S = \int_{-1}^2 (9-x^2) dx$ integralga teng. Nyuton-Leybnis formulasidan to`amiz:

$$S = \int_{-1}^2 (9-x^2) dx = \left(9x - \frac{x^3}{3} \right) \Big|_{-1}^2 = \left(9 \cdot 2 - \frac{2^3}{3} \right) - \left(9 \cdot (-1) - \frac{(-1)^3}{3} \right) = 24.$$




2-masala. $y=x^2$, $y=2x-x^2$ oarabolalar va Ox o`qi chegaralangan shaklning yuzini to`ing.

▲ $y=x^2$, $y=2x-x^2$ funksiyalarning grafiklarini yasaymiz va $x^2=2x-x^2$ tenglamadan bu funksiyalar grafiklarining kesishish nuqtalari abssissalarini to`amiz. Bu tenglanamaning ildizlari $x_1=0$ va $x_2=1$.

Rasmdan ko`rinib turibdiki, bu shakl ikkita egri chiziqli traoetsiyadan tuzilgan. Demak, izlanayotgan yuza bu traoetsiyalar yuzlarining yig`indisiga teng:


$$S = \int_0^1 x^2 dx + \int_1^2 (2x-x^2) dx = \frac{x^3}{3} \Big|_0^1 + \left(x^2 - \frac{x^3}{3} \right) \Big|_1^2 = 1.$$




3-masala. Ox o`qining $\left[\frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2} \right]$ kesmasi va $y=\cos x$ funksiyaning bu kesmadagi grafigi bilan chegaralangan shaklning S yuzini to`ing.

▲ Bu shaklning yuzi Ox o`qiga nisbatan bu shaklga simmetrik shaklning yuziga tengligi ravshan, yaoni Ox o`qining $\left[\frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2} \right]$ kesmasi va $y=-\cos x$ funksiyaning bu kesmadagi grafigi bilan chegaralangan shaklning yuziga teng. Bu kesmada $-\cos x \geq 0$ va shuning uchun

$$S = \int_{\frac{\pi}{2}}^{\frac{3\pi}{2}} (-\cos x) dx = (-\sin x) \Big|_{\frac{\pi}{2}}^{\frac{3\pi}{2}} = \left(-\sin \frac{3\pi}{2} \right) - \left(-\sin \frac{\pi}{2} \right) = 2.$$



Eslatma. Umuman, agar $[a;b]$ kesmada $f(x) \leq 0$ bo`lsa, u holda egri chiziqli traoetsiyaning yuzi $S = \int_a^b (-f(x))dx$ ga teng bo`ladi.




4-masala. $y=x^2+1$ oarabola va $y=x+3$ to`g`ri chiziq bilan chegaralangan shaklning yuzini to`ing.

▲ $y=x^2+1$ va $y=x+3$ funksiyalarning grafiklarini yasaymiz. $x^2+1=x+3$ tenglamadan bu grafiklar kesishadigan nuqtalarning abssissalarini to`amiz. Bu tnglama $x_1=-1$, $x_2=2$ ildizlarga ega.

Rasmdan lo`rinadiki, izlanayotgan yuzani birinchisi yuqoridan $y=x+3$ to`g`ri chiziq, ikkinchisi esa $y=x^2+1$ oarabola yoyi bilan chegralangan hamda $[-1;2]$ kesmaga tiralgan ikkita traoetsiya S_1 va S_2 yuzalarining ayirmasi sifatida to`ish mumkin:

$$S_1 = \int_{-1}^2 (x+3)dx, \quad S_2 = \int_{-1}^2 (x^2+1)dx$$




Bo`lgani uchun

$$S = S_1 - S_2 = \int_{-1}^2 (x+3)dx - \int_{-1}^2 (x^2+1)dx$$

Boshlang`ich funksiya xossasidan foydalanib, S ni bitta integral ko`rinishida yozish mumkin:

$$S = \int_{-1}^2 ((x+3) - (x^2+1))dx = \int_{-1}^2 (x+2-x^2)dx = \left(\frac{x^2}{2} + 2x - \frac{x^3}{3} \right) \Big|_{-1}^2 = 4,5$$



Umuman, rasmda tasvirlangan shaklning yuzi quyidagiga teng:


$$S = \int_a^b (f_2(x) - f_1(x))dx$$

Bu formula $f_2(x) > f_1(x)$ shartni qanoatlantiradigan $f_1(x)$ va $f_2(x)$ (istalgan ishorali qiymatlarni qabul qiladigan) uzluksiz funksiyalar uchun to`g`ridir.

5-masala. $u = x^2$ va $u = 2x^2 - 1$ oarabolalar bilan chegaralangan shaklning S yuzini to`ing.

▲ Berilgan shaklni yasaymiz (va $x^2 = 2x^2 - 1$ tenglamadan oarabolalar kesishishadigan nuqtalaming abssissalarini to`amiz).

Bu tenglama $x_{1,2} = \pm 1$ ildizlarga ega. Yuqoridagi formuladan foydalanamiz.



Bunda $f_1(x) = 2x^2 - 1$, $f_2(x) = x^2$:

$$S = \int_{-1}^1 (x^2 - (2x^2 - 1)) dx = \int_{-1}^1 (-x^2 + 1) dx = \left(-\frac{x^3}{3} + x \right) \Big|_{-1}^1 = \frac{4}{3}.$$

Differensial va integral hisob tarixidan.

Integral hisob — matematik analizning integrallar, ularning xossalari, hisoblash usullari va tatbiqlarini o`rganadigan bo`limi. U differensial hisob bilan birgalikda matematik analiz quroliniн asosini tashkil etadi.

Integral hisob tabiatshunoslik va matematikaning juda ko`o masalalarini o`rganish natijasida oaydo bo`ldi. Bulardan eng muhimlari — harakatning maolum, ammo o`zgaruvchi tezligiga ko`ra berilgan vaqt oralig`ida o`tilgan yo`lni aniqlashga oid fizik masala va geometrik shakllarning yuzlari va hajmlarini hisoblashga oid yanada qadimiyroq masaladir.

Hozir biz yuzalarni hisoblash masalalari jumlasiga kiritadigan masalalarni qadimgi Gretsya va Rim matematiklari biror yassi figuraning kvadraturasi haqidagi masalalar deb atashgan. latincha “*quadratura*” so`zi “*kvasrat shaklini berish*” deb tarjima qilinadi. Yuzlarni “integral yig`indi” yordamida hisoblash g`oyasi Arximed (m.a. 287-212 y.y.) ga mansub. “Integral” atamasini I. Bernulli (1667-1748 y.y.) kiritgan. Integralni $\int y dx$ kabi belgilashni Leybnis, $\int_a^b f(x) dx$ kabi belgilashni J.Fure (1768-1830-y.y) taklif qilgan. $S_n = f(c_1)\Delta x_1 + f(c_2)\Delta x_2 + f(c_3)\Delta x_3 + \dots + f(c_n)\Delta x_n$ integral yig`indini B.Riman (1826-1866-y.y.) ning integral yig`indisi deyiladi.

Hozirgi zamon adabiyotlarida $f(x)$ funksiyaning barcha boshlang`ich funksiyalari to`olamini “aniqmas integral” deb ham ataladi. Bu tushunchani Leybnis kiritgan. $\int_a^b f(x) dx$ esa aniq integral deyiladi. Bundagi integrallash chegaralarini L. Eyler ko`rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Matematik analiz asoslari (1-tom). G.M.Fixtengog'ts. Toshkent-1972
2. Matematik analiz kursidan misol va masalalar to'plami. A.Sahdullaev va boshqalar.Toshkent-1993
3. Algebra va analiz asoslari. SH. Alimov. Toshket-2004.
4. Yosh matematik qomusiy lug`ati. Toshkent-1992.
5. Matematika terminlari izohli lug`ati. O.V.Mantuov va boshqalar. Toshkent-1974.

**Matematematika va uni o`qitish metodikasi fani bo`yich maoruza
mashg`ulotlar texnologiyasi.**

Mavzu	Akademik litsey va KXK matematikasida differensial tenglamalar mavzusini o`qitish metodikasi
Vaqti 2 soat	Talabalar soni: 55-0 nafar
O`quv mashg`uloti shakli Maoruza	Vizual Maoruza
O`quv mshg`uloti rejasি	<ol style="list-style-type: none"> Differensial tenglamaga keltiruvchi masalalar. Differensial tenglama mavzusini akademik litsey algebra va analiz asoslari kursida o`rni. Differensial tenglamalar mavzusini o`qitish metodikasi
O`quv mashg`ulotining maqsadi	<ol style="list-style-type: none"> Differensial tenglamalar mavzusini o`qitish yo`llarini ko`rsatish.
pedagogic vazifalari: 1. Differensial tenglamalar mavzusini AL va KXK matematik kursidagi o`rnini yoritish. 2. Differensial tenglamalar tushunchasini kiritishni yo`llarini bayon etish 3. AL va KXK boslang`ich differensial tenglamalar mavzusini o`qitishning metodik xususiyatlarini ochish	O`quv faoliyatining natijalari: Talaba : Differensial tenglama tushunchasi elementlarni kiritishga yo`llanma berish.
O`qitish uslubi va texnikasi	Visual maoruza. BBB jadval, bayon qilish, insert texnikasi asosida matin bilan ishslash aqliy xujum
O`qitish vositalari	Maoruzalar matni, oroektir, tarqatma material.
O`qitish shakli	Jamoada ishslash
O`qitish sharoitlari	proektor, komoyuter bilan jixozlangan avditoriya

Akademik litsey va kasb xunar kolej matematika kursida differensial tenglamalar tushunchasini kiritish metodikasi.
Mashg`ulotning texnologik kartasi.

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1.Bosqich. Kirish(15min)	1.1 Mavzu, uning maqsadi, o`quv mashg`ulotida kutilgan natijalar maolum qilinadi. 1.2 Talabalarni eotiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun BBB jadvalni tarqatiladi. 1.3 O`tilgan mavzu yuzasidan aqliy hujum o`tkazish	1.1 eshitadi, yozib oladi 1.2 BBB jadvalni to`ldiradi 1.3 O`tilgan mavzu yuzasidan savollarga javob beradi
2.Bosqich asosiy (55 min)	2.1 VVizual materiyallardan foydalangan xolda Differensial tenglamalar tushunchasini AL va KXX matematikasida o`rgatish bayon etish. 2.2 Differensial tenglamalar tushunchasi elementlarni kiritishga yo`llanma ko`rsatish. 2.3 AL va KXX matematikasida Differensial tenglamalar tushunchasini o`qitishning metodik xususiyatiga talabalarning etiborini qaratish 2.4 Differensial tenglamalar xossalariini inobatga olgan xolda, ularning grafigini chizishga o`rgatiladi.	2.1 chizmalar asosida axborot qabul qilinadi. 2.2 savollar berib asosiy joylari yozib olinadi. 2.3 eslab qoladi, yozadi 2.4 o`qituvchining harbir savoliga javob berishga harakat qilinadi 2.5 to'shiriqlarni mustaqil bajaradi.
3.Bosqich yakuniy (10 min)	talabalarning etiborini asosiy masalalarga qaratish, mavzuga yakun yasash. BBB jadvalni yig`ishtirib olish faol ishtirot etgan talabalarni rag`batlantirish mustaqil to'shiriqlarni berish	3.1 aniq eshitadi, xulosa chiqaradi, to'shiriqlarni yozib oladi

Aqliy hujum.

1. O`qitish merodlari haqida maolunot bering?
2. Muammoli metod nima?
3. Evrietik taolim metodi?
4. Dasturlashgan taolim metodi?
5. Didaktaj prinsiplari deganda nimani tushunas?

6. Ketma-ketlik prinsipi?
7. Izchillik prinsipi?
8. puxta- o`zlashtirishlar prinsipi?
9. Taolim va tarbiyani birgalikda olib boorish prinsipi?
10. Ilmiylik prinsioi?
11. Amaliy yo`langanlik prinsipi?
12. Tushunararlilik prinsipi?
13. Faollik prinsipi?
14. Mustahkamlilik prinsipi?
15. Ko`rsatmalilik prinsipi?
16. Individual yondashu prinsipi?

ILOVA

Akademik litsey va KXK matematikasida differensial tenglamalar mavzusini o`qitish metodikasi

- 1. Differensial tenglamaga keltiruvchi masalalar.**
- 2. Differensial tenglama mavzusini akademik litsey algebra va analiz asoslari kursida o`rni.**
- 3. Differensial tenglamalar mavzusini o`qitish metodikasi**

1. Fan va texnikada juda ko`p masalalar uchraydi, bu masalalarni yechish nomahrum funktsiya hosilasi yoki (nomahrum funktsiya differentsiyal) qatnashgan tenglamani yechishga keltiriladi.

Biriga misol keltiraylik.

1) Elektrontexnikada tok kuchi i, kuchlanish v, zanjir qarshiligi R va o`zinduktsiya koeffitsienti L orasidagi bog'lanish quyidagi

$$V = Ri + L \frac{di}{dt}$$

ko'rinishdagi differentsiyal tenglama bilan ifodalanadi.

2) Astronomiyada Keplerning "yuzlar integrali" nomi bilan mashxur bo'lган birinchi qonuni

$$r^2 \frac{d\varphi}{dt} = c$$

ko'rinishdagi differentsiyal tenglama bilan ifoda qilinadi, bunda r va φ Quyosh atrofida aylanuvchi samo jismning qutb koordinatalari, t- vaqt, s- o'zgarmas miqdordir.

Differentsial tenglamalarga olib keladigan birinchi sodda masalalarni ko'raylik .

1) xOu koordinata teksligida shunday uzluksiz egri chiziq topingki, uning har bir (x,u) nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning abstsissa o'qining musbat yo'nalishi bilan hosil qilgan burchakning tangensi, urinish nuqtasi abstsissasining ikkilanganiga teng bo'lsin.

Faraz qilaylik $y=f(x)$ izlangan egri chiziq bo'lsin. Masalaning sharti bo'yicha $y=f(x)$ egri chiziqning $M(x,f(x))$ nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsienti $f'(x)$ ga teng. Masalani yechish.

$$\frac{dy}{dx} = 2x$$

ko'inishdagi sodda tenglamani yechishga keltiriladi.

Bu tenglamaning yechimi $u=x^2+s$, s - ixtiyoriy o'zgarmas son bo'ladi. Ko'yilgan masala yechishning geometrik mahnosи x0u koordinata tekisligida parabolalar oilasidan iborat.

2) O'zgarmas tezlanish bilan harakat qilayotgan moddiy nuqtaning harakat qonuniyatini toping.

Mahlumki, S yo'ldan t vaqt bo'yicha olingan ikkinchi tartibli hosila $\frac{d^2S}{dt^2}$ tezlanishni beradi. Masalaning sharti bo'yicha

$$\frac{d^2S}{dt^2} = a, a - o'zgarmas son.$$

Bu tenglamaning yechimi

$$S = \frac{at^2}{2} + c_1t + c_2, c_1, c_2 \text{ lar ixtiyoriy o'zgarmas sonlar.}$$

SHunga o'xshash differentsial tenglamaga olib keladigan masalalarni ko'plab keltirish mumkin.

Erkli o'zgaruvchi x, nomahlum funktsiya u va uning $u_o, y'', \dots, y^{(n)}$ hosilalari orasidagi bog'lanishni ifodalaydigan tenglamaga differentsial tenglama deyiladi.

Differentiial tenglamani simvolik ravishda quyidagicha yozish mumkin:

$$F(u, y'', \dots, y^{(n)}) = 0 \quad (1)$$

Tenglamada qatnashgan nomahlum funktsiya bir o'zgaruvchili funktsiya bo'lsa, bunday tenglama oddiy differentsial tenglama deyiladi. Agar tenglamada qatnashgan nomahlum funktsiya birnecha o'zgaruvchining funktsiyasi bo'lsa, bunday tenglama xususiy hosilali differentsial tenglama deyiladi.

$$x \frac{\partial u}{\partial x} = u \frac{\partial u}{\partial y} \quad (2)$$

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} \quad (3)$$

bu yerda $u=u(x,y)$, ko'inishdagi tenglamalar xususiy hosilali differentsial tenglamaga misol bo'la oladi. Bu kursda biz faqat oddiy differentsial tenglamalar bilan shuQullanamiz.

Differentiial tenglamaning tartibi deb tenglamaga kirgan hosilaning eng yuqori tartibiga aytildi.

Masalan, $y''-2xy+3=0$ tenglama birinchi tartibli differentsial tenglamaga, $y''-xy=0$ esa ikkinchi tartibli differentsial tenglamaga misol bo'ladi.

Yuqoridagi (1) tenglama esa n tartibli differentsial tenglamadir.

Differentiial tenglama yechimi yoki integrali deb differentsial tenglamaga qo'yganda uni ayniyatga aylantiradigan har qanday $u=\varphi(x)$ funktsiyaga aytildi.

Masalan:

$$1) xy - y - x^2 = 0$$

tenglamaning yechimlari $u=x^2+sx$ (s - ixtiyoriy o'zgarmas son) ko'inishdagi funktsiyalar bo'ladi. Yechimni tenglamaga qo'yib ishonch hosil qilish mumkin.

$$2) y''+y=0$$

tenglamaning $y=\sin 2x$, $y=\cos 2x$, $y=2\sin 2x-\cos 2x$ funktsiyalar, umuman $u=s_1 \sin 2x, u=s_2 \cos 2x$, yoki

$$u=s_1 \sin 2x + s_2 \cos 2x$$

ko'rinishdagi funktsiyalar s_1, s_2 ixtiyoriy o'zgarmas miqdorlarning har qanday qiymatlarida berilgan differentsial tenglamaga ko'rsatilgan funktsiyalarni qo'yib ishonch hosil qilish mumkin.

2. Birinchi tartibli differentsial tenglamalar.

Birinchi tartibli differentsial tenglamaning umumiyo ko'rinishi

$$F(x, y, y') = 0 \quad (1)$$

ko'rinishda bo'ladi. Agar (1) tenglamani yo ga nisbatan yechish mumkin bo'lsa, uni

$$y'=f(x,y) \quad (2)$$

ko'rinishda yozish mumkin va uni hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differentsial tenglama deyiladi.

$x=x_0$ bo'lganda u funktsiya berilgan u_0 songa teng bo'lishi kerak degan shart boshlang'ich shart deyiladi. Bu shart ko'pincha

$$u|_{x=x_0} = y_0 \quad (3)$$

ko'rinishda yoziladi.

Birinchi tartibli $y=f(x,y)$ differentsial tenglamalar nazariyasining asosiy masalalaridan biri boshlang'ich shart $u|_{x=x_0} = y_0$ ni qanoatlantiruvchi yechimni topishdan iborat. Bu masala Koshi masalasi deyiladi.

Birinchi tartibli differentsial tenglamaning umumiyo yechimi deb bitta ixtiyoriy s o'zgarmas miqdorga bo'lgan hamda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi

$$u=\varphi(x,s)$$

funktсиyaga aytiladi:

a) Bu funktsiya differentsial tenglamani s o'zgarmas miqdorning har qanday konkret qiymatida ham qanoatlantiradi.

b) $x=x_0$ bo'lganda $u=u_0$ yahni $u|_{x=x_0} = y_0$ boshlang'ich shart har qanday bo'lganda ham s miqdorning shunday $s=s_0$ qiymatini topish mumkinki, $u=\varphi(x,s_0)$ funktsiya berilgan boshlang'ich shartni qanoat-lantiradi.

Biz differentsial tenglamaning umumiyo yechimini izlashda ko'pincha u ga nisbatan yechilmagan

$$F(x, u, s) = 0 \quad (4)$$

ko'rinishdagi munosabatga kelib qoladi. Bu munosabatni u ga nisbatan yechsak, umumiyo yechimni hosil qilamiz. Lekin (4) ni u ga nisbatan yechish hamma vaqt ham mumkin bo'lavermaydi. Umumiyo yechimni oshkormas holda ifodalovchi $F(x, u, s) = 0$ ko'rinishdagi tenglik differentsial tenglamaning umumiyo integrali deyiladi.

Ixtiyoriy s o'zgarmas miqdorga mahlum $s=s_0$ qiymat berish natijasida $u=\varphi(x,s)$ umumiyo yechimdan hosil bo'ladigan $u=\varphi(x,s_0)$ funktsiya xususiy yechim deyiladi. Bu holda $F(x,u,s_0)=0$ munosabat tenglamaning xususiy integrali deyiladi.

Misol. $\frac{dy}{dx} = -\frac{y}{x}$ tenglamaning $u|_{x=2}=1$ boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimni toping.

Berilgan tenglamaning umumi yechimi $y = \frac{c}{x}$ bo’ladi (tekshirib ko’rsat).

Boshlang‘ich shartlarga asosan

$$1 = \frac{c}{2}, s=2$$

Bu holda $y = \frac{2}{x}$ xususiy yechimni hosil qilamiz.

$yo=f(x,y)$ tenglamaning umumi yechimi $u=\varphi(x,s)$ x0u koordinata tekisligida egri chiziqlar oilasini ifodalaydi. Bu egri chiziqlar integral egri chiziqlar deyiladi. Differentsial tenglama va uning yechimi sodda geometrik mahnoga ega.

Faraz qilaylik $f(x,y)$ funktsiya biror D sohada aniqlangan bo’lsin. $M(x,y) \in D$ nuqtadagi $f(x,y)$ funktsiyaning qiymati $f(x,y)=k$ M nuqtadan o’tuvchi egri chiziqqa M nuqtada o’tkazilgan urinmaning burchak koeffitsienti aniqlaydi.

$$yo=f(x,y)$$

differentsial tenglama esa x0u tekislikda yo’nalishlar maydonini aniqlaydi.

$yo=f(x,y)$ differentsial tenglama uchun $\frac{dy}{dx} = s$ ($f(x,y)=s$) munosabat bajariladigan

nuqtalarning geometrik o’rni berilgan differentsial tenglamaning izoklinasi deyiladi.

$$\frac{dy}{dx} = -\frac{y}{x} \text{ tenglamining izoklinasi } u=-sx \text{ bo’ladi.}$$

3. $yo=f(x,y)$ differentsial tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi xaqidagi teorema.

Berilgan tenglamaning $u|_{x=x_0}=y_0$ boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechim qaysi vaqtda mavjud va yagona bo’ladi degan savolga javob beramiz.

Faraz qilaylik $f(x,y)$ funktsiya yopiq to’Qri to’rtburchak

$$D=\{(x,y) \in R^2 ; |x-x_0| \leq a, |y-y_0| \leq b\}$$

sohada berilgan bo’lsin.

Agar shunday o’zgarmas musbat k son mavjud bo’lsaki, $f(x,y)$ funktsiya x argumentning $|x-x_0| \leq a$ tongsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy qiymatlarida, u argumentning $|y-y_0| \leq b$ tongsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy \bar{y} va $\bar{\bar{y}}$ qiymatlarida

$$|f(x, \bar{y}) - f(x, \bar{\bar{y}})| \leq k |\bar{y} - \bar{\bar{y}}|$$

tongsizlik o’rinli bo’lsa, $f(x,y)$ funktsiya ikkinchi argument u bo’yicha Lipshits shartini bajaradi deyiladi. Agar $f(x,y)$ funktsiya D sohada uzlusiz bo’lsa, u shu sohada chegaralangan, yahni shunday o’zgarmas M son mavjudki, $\forall (x,y) \in D$ uchun $|f(x,y)| \leq M$ bo’ladi.

Teorema. Agar $yo=f(x,y)$ differentsial tenglamada $f(x,y)$ funktsiya

$$D=\{(x,y) \in R^2 ; |x-x_0| \leq a, |y-y_0| \leq b\}$$

sohada uzlusiz bo'lib, ikkinchi argumenti bo'yicha Lipshits shartini bajarsa, u holda berilgan differential tenglamaning $[x_0-h, x_0+h]$ segmentda ($h=\min(a; \frac{b}{M})$)

$$u|_{x=x_0} = y_0$$

boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud bo'lib, u yagona bo'ladi.

Tekshirish savollari.

1. Oddiy differential tenglama, xususiy hosilali differential tenglama deb nimaga aytildi?
2. Koshi masalasi nima?
3. $y=f(x,y)$ differential tenglama yo'nalishlar maydoni sifatida degan jumlani qanday izohlaysiz?
4. Lipshits sharti nimadan iborat?
5. Differential tenglamaning izoklinasi nima?

Adabiyot:

1. Kudryavtsev L.D. Kurs matematicheskogo analiza. Moskva: 1981 t-1
2. Ilg'in V.A., Poznyak E.G., Osnova matematicheskogo analiza. M: 1982. ch-1. rus.
3. Boyqo'ziev K.B., Differential tenglamalar. 1983. o'zb.
4. Salohiddinov M.S., Nasriddinov O'.N., Oddiy differential tenglama. T: 1994. o'zb
5. Demidovich B.P. Sbornik zadach i uprajneniy po matematicheskому analizu. M: 1990. rus.
6. Davqarov N.A., Korovkin P.P., Nikol'skiy V.N., Sbornik zadach po matematicheskому analizu. M: 1976. o'zb
7. T.SHaripova, E.Yo'ldoshev, Matematik analizdan misol va masalalar to'plami. T: 1996. o'zb
8. Ilg'in V.A., Poznyak E.G., Matematik analiz asoslari. t-1. Toshkent: "O'qituvchi" 1981.
9. Piskunov N.S. Differential va integral hisob. T: "O'qituvchi" 1972-1974. t-1-2.
10. Jo'raev T., Sahdullaev A., Xudayberganov G., Mansurov X., Vorisov A. Oliy matematika asoslari

Matematika va uni o`qitish metodikasi fani bo`yich maoruza mashg`ulotlar texnologiyasi.

Mavzu	Akademik litsey va KXX matematikasida kombinatorika elementlari mavzusini o`qitish metodikasi
Vaqti 2 soat	Talabalar soni: 55-0 nafar
O`quv mashg`uloti shakli Maoruza	Vizual Maoruza

O`quv mshg`uloti rejasি	<ol style="list-style-type: none"> Kombinetoriya elementlari haqida tushuncha berish. Kombinetoriya elementlari mavzusini o`qitish metodikasi Kombinetoriya elementlariga oid masalalar yechish yo`llari.
O`quv mashg`ulotining maqsadi	<ol style="list-style-type: none"> Akademik litsey va KXX matematikasida kombinatorika elementlari mavzusini o`rnini ko`rsatish va o`qitish metodi bilan tanishtirish.
pedagogic vazifalari: 4. Akademik litsey va KXX matematikasida kombinetoriya elementlari mavzusini o`rnini yoritish. 5. Akademik litsey va KXX matematikasida kombinetoriya elementlari mavzusini kiritishni yo`llarini bayon etish 6. Akademik litsey va KXX matematikasida kombinetoriya elementlari mavzusini o`qitishning metodik xususiyatlarini ochish	<p>O`quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talaba : Akademik litsey va KXX matematikasida kombinatorika elementlari mavzusini yo`llanma berish.</p>
O`qitish uslubi va texnikasi	Visual maoruza. BBB jadval, bayon qilish, insert texnikasi asosida matn bilan ishlash aqliy xujum
O`qitish vositalari	Maoruzalar matni, proektir, tarqatma material.
O`qitish shakli	Jamoada ishlash
O`qitish sharoitlari	proektor, kompyuter bilan jixozlangan avditoriya

Akademik litsey va kasb xunar kollej matematika kursida kombinatorika elementlari mavzusini tushunchasini kiritish metodikasi.
Mashg`ulotning texnologik kartasi.

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1.Bosqich. Kirish(15m in)	<p>1.4Mavzu, uning maqsadi, o`quv mashg`ulotida kutilgan natijalar maolum qilinadi.</p> <p>1.5 Talabalarni eotiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun BBB jadvalni tarqatiladi.</p> <p>1.6O`tilgan mavzu yuzasidan aqliy hujum o`tkazish</p>	<p>1.4 eshitadi, yozib oladi</p> <p>1.5 BBB jadvalni to`ldiradi</p> <p>1.6 o`tilgan mavzu yuzasidan savollarga javob beradi</p>
2.Bosqich asosiy (55 min)	<p>2.1 VVizual materiyallardan foydalangan xolda Akademik litsey va KXK matematikasida kombinatoriya elementlari mavzusini o`rgatishni bayon etish.</p> <p>2.2 Akademik litsey va KXK matematikasida kombinatoriya tushunchasi elementlarni kiritishga yo`llanma ko`rsatish.</p> <p>2.3 Akademik litsey va KXK matematikasida kombinatoriya elementlari tushunchasini o`qitishning metodik xususiyatiga talabalarning etiborini qaratish</p> <p>2.4 Akademik litsey va KXK matematikasida kombinatoriya elementlari xossalalarini inobatga olgan xolda, ularning grafigini chizishga o`rgatiladi.</p>	<p>2.1 chizmalar asosida axborot qabul qilinadi.</p> <p>2.2savollar berib asosiy joylari yozib olinadi.</p> <p>2.3 eslab qoladi, yozadi</p> <p>2.4o`qituvchining harbir savoliga javob berishga harakat qilinadi</p> <p>2.5 to'shiriqlarni mustaqil bajaradi.</p>
3.Bosqi ch yakuniy (10 min)	talabalarning etiborini asosiy masalalarga qaratish, mavzuga yakun yasash. BBB jadvalni yig`ishtirib olish faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantirish mustaqil to'shiriqlarni berish	3.1 aniq eshitadi, xulosa chiqaradi, to'shiriqlarni yozib oladi

Такроланадиган синовлардан ҳар бирининг у ёки бу натижасининг эҳтимоллиги бошқа синовларда қандай натижалар бўлганлигига боғлиқ бўлмаса, улар эркли синовлар кетма – кетлигини ҳосил қиласди дейилади.

Ҳар хил эркли синашларда A ҳодиса ё ҳар хил эҳтимолга, ёки бир хил эҳтимолга эга бўлиши мумкин. Биз бундан кейин A ҳодиса бир хил эҳтимолга эга бўлган эркли синашларни текширамиз.

Фараз қиласдик, n та ўзаро эркли синаш ўтказилаётган бўлиб, уларнинг ҳар бирида A ҳодиса ё рўй бериши, ёки рўй бермаслиги мумкин бўлсин. A ҳодисасининг эҳтимоли ҳар бир синашда бир хил, чунончи p га teng деб ҳисоблаймиз, рўй бермаслик эҳтимоли эса $q = 1 - p$ га teng. Синовларнинг бундай энг содда кетма – кетлигига Бернулли схемаси дейилади.

Масалан. Ўйин соққасини ташлашдан иборат тажриба ўтказилмоқда. Ҳар бир ташлашда у ёки бу сонда очколар чиқиш эҳтимоллиги бошқа ташлашларда қандай очко чиққанлигига боғлиқмаслиги равшан, бинобарин биз бу ерда эркли синовлар кетма – кетлигига эгамиз.

n та синашда A ҳодисасининг роса k марта рўй бериши, ва демак, $n - k$ марта рўй бермаслик эҳтимолини ҳисоблашни кўриб чиқайлик.

n та синашда A ҳодисасининг роса k марта рўй бериши ва $n - k$ марта рўй бермаслигидан иборат бўлган битта мураккаб ҳодисасининг эҳтимоли эркли ҳодисалар эҳтимолини кўпайтириш теоремасига кўра $p^k \cdot q^{n-k}$ га teng. Бундай мураккаб ҳодисалар n та элементдан k тадан нечта группалаш тузиш мумкин бўлса, шунча, яъни C_n^k та бўлади. Изланамаётган эҳтимолликни $P_n(k)$ билан белгилаймиз.

У ҳолда

$$P_n(k) = C_n^k p^k \cdot q^{n-k}$$

ҳосил қилинган формула Бернулли формуласи дейилади.

Мисол. Ҳар бир деталнинг стандарт бўлиш эҳтимоли $p = 0,8$ бўлса, таваккалига олинган 5 та деталдан роса 2 тасининг стандарт бўлиш эҳтимолини топинг.

Ечиш. Изланамаётган эҳтимолни $n = 5, m = 2, p = 0,8$ ва $q = 0,2$ да Бернулли формуласидан топамиз.

$$P_5(2) = C_5^2 0,8^2 \cdot 0,2^3 = \frac{5!}{3!2!} 0,00512 = 0,0512$$

Бернулли формуласининг татбиқига доир яна битта мисол келтирамиз. Танга 10 марта ташланади. Герб томонининг аниқ 3 марта тушиш эҳтимоли қанчага teng?

Ечиш. Бу ҳодисасининг ҳар бир тажрибадаги эҳтимоли $1/2$ га teng. Бундан,

$$P_{10}(3) = C_{10}^3 \left(\frac{1}{2}\right)^3 \cdot \left(\frac{1}{2}\right)^7 = \frac{10!}{3!7!} \cdot \frac{1}{2^{10}} = \frac{15}{28}$$

A ҳодисасининг ўтказилаётган n та эркли такрорий синов давомида камида k марта рўй бериш эҳтимоли

$$P_n(k) + P_n(k+1) + \dots + P_n(n)$$

күпі билан k марта рўй бериш эҳтимоли эса

$$P_n(0) + P_n(1) + \dots + P_n(k)$$

формулалар билан ҳисобланади.

Агар n та эркли синовда ҳодисанинг k_0 марта рўй бериш эҳтимоли синовнинг бошқа мумкин бўлган натижалари эҳтимолларидан кичик бўлмаса, у ҳолда k_0 сони – энг эҳтимолли сон деб аталади ва қуийдаги қўш тенгсизлик билан аниқланади:

$$np - q \leq k_0 \leq np + p$$

Энг эҳтимолли сонни аниқлаш учун ҳамма эҳтимолларни ҳисоблаб чиқмасдан синовлар сони n ни ва ҳар бир синовда A ҳодисанинг рўй бериш эҳтимолини билиш кифоя экан. Ҳақиқаттан ҳам, энг эҳтимолли сонга мос келувчи эҳтимолни $P_n(k_0)$ билан белгиласак, юқоридаги формуладан

$$P_n(k_0) = C_n^{k_0} p^{k_0} \cdot q^{n-k_0} = \frac{n!}{k_0!(n-k_0)!}$$

Энг эҳтимолли сонининг таърифидан

$$P_n(k_0) \geq P_n(k_0 - 1)$$

$$P_n(k_0) \geq P_n(k_0 + 1)$$

Бу тенгсизликларга мос равища $P_n(k_0)$, $P_n(k_0 - 1)$, $P_n(k_0 + 1)$ ларнинг қийматларини қўйиб қуийдагиларга эга бўламиш.

$$\frac{n!}{k_0!(n-k_0)!} p^{k_0} \cdot q^{n-k_0} \geq \frac{n! p^{k_0-1} q^{n-k_0+1}}{(k_0-1)!(n-k_0+1)},$$

$$\frac{n!}{k_0!(n-k_0)!} p^{k_0} \cdot q^{n-k_0} \geq \frac{n! p^{k_0-1} q^{n-k_0+1}}{(k_0+1)!(n-k_0-1)!} p^{k_0+1} \cdot q^{n-k_0-1}$$

Бу тенгсизликларни k_0 га нисбатан ечамиз ва қуийдагиларга эга бўламиш:

$$k_0 \leq np + p; k_0 \geq np - q$$

Охирги икки тенгсизликни бирлаштириб, энг эҳтимолли сонни аниқловчи қўш тенгсизликка эга бўламиш:

$$np - q \leq k_0 \leq np + p$$

Бу тенгсизликни аниқловчи интервалнинг узунлиги

$$np + p - (np - q) = p + q = 1$$

еканлигини ва ҳодиса n та синов натижасида бутун сон марта рўй беришини ҳисобга олсак, энг эҳтимолли сон k_0 шартларни қаноатлантиради:

- а) агар $np - q$ сон каср бўлса, у ҳолда битта энг эҳтимолли k_0 сон мавжуд бўлади;
- б) агар $np - q$ бутун сон бўлса, у ҳолда иккита k_0 ва $k_0 + 1$ энг эҳтимолли сонлар мавжуд бўлади;
- в) агар np бутун сон бўлса, у ҳолда энг эҳтимолли сон $k_0 = bp$ бўлади.

Мисол. Танга 6 марта ташланади. Гербли томон тушишларининг энг эҳтимолли сонини топинг.

Ечиш. Берилган масаланинг шартларига асосан, $n = 6$, $p = q = 1/2$. У ҳолда, гербли томон тушишларининг энг сони k_0 ни қуийдаги қўш тенгсизликдан фойдаланиб топамиш:

$$6 \cdot \frac{1}{2} - \frac{1}{2} \leq k_0 \leq 6 \cdot \frac{1}{2} + \frac{1}{2} \Rightarrow 2,5 \leq k_0 \leq 3,5$$

Демак, энг эҳтимолли сон 3 экан.

Шундай қилиб, энг эҳтимолли сонни аниқлаш жараёнида биз *пр* соннинг Бернулли схемасида маҳсус ролга эга эканлигига ишонч ҳосил қилиш имконига эга бўлдик. Бу роль шундан иборат бўлдики, *пр* сонга энг яқин бўлган иккита бутун сонлардан бири (Баъзан эса иккаласи ҳам) энг эҳтимолли сон бўлди.

пр сон юқоридагидан бошқа унга нисбатан муҳимроқ бўлган талқинга ҳам эга экан. Чунончи, *пр* ни маълум маънода n та тажрибалардаги муваффақиятларнинг ўртача сони деб қараш мумкин.

Қисқалик учун тажрибанинг n марта тақороланишини серия деб атаемиз. Фараз қилайлик, биз бирор сонга тенг, айтайлик, N та серия ўтказган бўлайлик. Биринчи серияда k_1 та муваффақият, иккинчисида k_2 та ва ҳ.к. N – серияда эса K_N та муваффақият олинган бўлсин. Бу сонларнинг ўрта арифметигини тузамиз:

$$\frac{k_1 + k_2 + \dots + k_n}{N}$$

n ортиши билан кўрсатилган ўрта арифметик бирор ўзгармас қийматга яқинлашар экан. Бунга ишонч ҳосил қилиш мақсадида охирги муносабатни

$$\frac{k_1 + k_2 + \dots + k_n}{n} \cdot n$$

кўринишда ёзиб оламиз; сўнгра қўйидаги ҳолни эътиборга оламиз. N та серия ўтказиши билан биз қаралаётган тажрибани Nn марта амалга оширамиз. Юқорида ёзилган Nn маҳражли каср ана шу Nn та тажрибалардаги муваффақиятлар умумий сонининг барча тажрибалар сонига нисбатидан бошқа нарса эмас. N нинг ўсиши (демак, Nn ҳам ўсиши) билан бу каср муваффақиятнинг эҳтимоли бўлган P сонга яқинлашади. Демак,

$$\frac{k_1 + k_2 + \dots + k_n}{N}$$

ифода *пр* сонга яқинлашади. Ана шунни ҳосил қилиш талаб қилинган эди.

Мисол. Маълум корхонанинг шароитида яроқсизликка йўл қўйиш эҳтимоли 0,05 га тенг. 100 та маҳсулот орасидаги яроқсиз маҳсулотларнинг ўртача сони нимага тенг?

Ениш. Изданаётган сон $pr = 100 \cdot 0.05 = 5$ га тенг бўлади.

Полиномиал схема

Бу схема биномиал схеманинг (Бернулли схемасининг) умумлашмасиди. Агар Бернулли схемасида ҳар бир тажрибада фақат 2 та ҳодиса \bar{A} ва A қаралган бўлса, полиномиал схемаси ҳар бир синовда k та ҳодиса қаралади. Тажриба шундан иборат бўладики, n та боғлиқ бўлмаган синов ўтказилади ва уларнинг ҳар бирида тўла гурӯҳ ҳосил қиласидиган k та A_1, A_2, \dots, A_k ҳодисасининг фақат битаси рўй бериши мумкин, бунда бу ҳодисаларнинг эҳтимолларни маълум:

$$P_1 = P(A_1), P_2 = P(A_2), \dots, P_k = P(A_k),$$

A_1 ҳодиса роса m_1 марта, A_2 ҳодиса роса m_2 марта, ... A_k ҳодиса роса m_k марта рўй бериш эҳтимоли

$$P_n(m_1, m_2, \dots, m_k) = \frac{n!}{m_1! m_2! \dots m_k!} P_1^{m_1} P_2^{m_2} \cdots P_k^{m_k}$$

хусусий ҳолда, $k = 2$ бўлганда Бернулли формуласи келиб чиқади.

төңгизликтен алмаштирамиз. Уни мусбат $\sqrt{\frac{n}{pq}}$ күпайтучига күпайтырсақ

$$-\varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}} \leq \frac{m-np}{\sqrt{npq}} \leq \varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}}$$

Лапласининг интеграл теоремасидан фойдаланиб,

$$x' = -\varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}} \text{ ва } x'' = \varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}}$$

деб олиб, қуийдагини ҳосил қыламиз:

$$P\left(-\varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}} \leq \frac{m-np}{\sqrt{npq}} \leq \varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}}\right) \approx \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\frac{\varepsilon\sqrt{n/pq}}{\sqrt{npq}}}^{\frac{\varepsilon\sqrt{n/pq}}{\sqrt{npq}}} e^{-\frac{z^2}{2}} dz = \frac{2}{\sqrt{2\pi}} \int_0^{\frac{\varepsilon\sqrt{n/pq}}{\sqrt{npq}}} e^{-\frac{z^2}{2}} dz = 2\phi\left(\varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}}\right)$$

Ниҳоят, қавс ичидағи төңгизликтарни уларга тенг кучли бўлган дастлабки төңгизликтен алмаштириб, қуийдагини ҳосил қыламиз:

$$P\left(\left|\frac{m}{n} - p\right| \leq \varepsilon\right) \approx 2\phi\left(\varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}}\right)$$

Хулоса қилиб айтганда,

$$\left|\frac{m}{n} - p\right| \geq \varepsilon$$

төңгизликтининг рўй бериш эҳтимоли тақрибан Лапас функциясининг $x = \varepsilon\sqrt{\frac{n}{pq}}$ даги иккиланган қийматига тенг экан.

Ўз—ўзини текшириш учун саволлар.

1. Лапласнинг локал теоремасини таърифланг.
2. Лапласнинг интеграл теоремасини айтинг.
3. Пуассон теоремаси қандай ҳолларда қўлланилади?
4. Локал ва интеграл теоремаларнинг амалий аҳамияти нимадан иборат?

Mavzu kademik litsey va KXK matematikasida extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o`qitish metodikasi maoruza mashg`ulotlar texnologiyasi.

Mavzu	Akademik litsey va KXK matematikasida extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o`qitish metodikasi
Vaqti 2 soat	Talabalar soni: 55-0 nafar
O`quv mashg`uloti shakli Maoruza	Vizual Maoruza
O`quv mshg`uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari haqida tushuncha berish. 2. Extimollar nazariyasi va matematik

	<p style="text-align: right;">statistika mavzusini o`qitish metodikasi</p> <p>3. Extimollar nazariyasi va matematik statistika axamiyatini ko`rsatish.</p>
O`quv mashg`ulotining maqsadi	<p>1. Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari axamiyatini ko`rsatish</p>
<p>pedagogic vazifalari:</p> <p>7. Akademik litsey va KXK matematikasida Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari o`rnini yoritish.</p> <p>8. Akademik litsey va KXK matematikasida Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari kiritishni yo`llarini bayon etish</p> <p>9. Akademik litsey va KXK matematikasida Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari o`qitishning metodik xususiyatlarini ochish</p>	<p>O`quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talaba : Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini kiritishga yo`llanma berish.</p>
O`qitish uslubi va texnikasi	Visual maoruza. BBB jadval, bayon qilish, insert texnikasi asosida matin bilan ishlash aqliy xujum
O`qitish vositalari	Maoruzalar matni, oroektir, tarqatma material.
O`qitish shakli	Jamoada ishslash
O`qitish sharoitlari	proektor, komoyuter bilan jixozlangan avditoriya

Akademik litsey va kasb xunar kolej matematika kursida Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari mavzusini tushunchasini kiritish metodikasi.

Mashg`ulotning texnologik kartasi.

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1.Bosqich. Kirish(15min)	<p>1.1Mavzu, uning maqsadi, o`quv mashg`ulotida kutilgan natijalar maolum qilinadi.</p> <p>1.2 Talabalarni eotiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun BBB jadvalni</p>	<p>1.1eshitadi, yozib oladi</p> <p>1.2BBB jadvalni to`ldiradi</p> <p>1.3O`tilgan mavzu</p>

	<p style="text-align: center;">tarqatiladi.</p> <p style="text-align: center;">1.3 O`tilgan mavzu yuzasidan aqliy hujum o`tkazish</p>	<p style="text-align: center;">yuzasidan savollarga javob beradi</p>
2.Bosqich asosiy (55 min)	<p>2.1 VVizual materiyallardan foydalangan xolda Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari o`rgatishni bayon etish.</p> <p>2.2 Akademik litsey va KXK matematikasida Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini kiritishga yo`llanma ko`rsatish.</p> <p>2.3 Akademik litsey va KXK matematikasida Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o`qitishning metodik xususiyatiga talabalarning etiborini qaratish</p> <p>2.4 Akademik litsey va KXK matematikasida Extimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari xossalarni inobatga olgan xolda, ularning grafigini chizishga o`rgatiladi.</p>	<p>2.1 chizmalar asosida axborot qabul qilinadi.</p> <p>2.2 savollar berib asosiy joylari yozib olinadi.</p> <p>2.3 eslab qoladi, yozadi</p> <p>2.4 o`qituvchining harbir savoliga javob berishga harakat qilinadi</p> <p>2.5 topshiriqlarni mustaqil bajaradi.</p>
3.Bosqich yakuniy (10 min)	<p>talabalrning etiborini asosiy masalalarga qaratish, mavzuga yakun yasash. BBB jadvalni yig`ishtirib olish</p> <p>faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantirish mustaqil to'shiriqlarni berish</p>	<p>3.1 aniq eshitadi, xulosa chiqaradi, to'shiriqlarni yozib oladi</p>

Aqliy hujum.

1. O`qitish merodlari haqida maolunot bering?
2. Muammoli metod nima?
3. Evrietik taolim metodi?
4. Dasturlashgan taolim metodi?
5. Didaktaj orinsiolari deganda nimani tushunas?
6. Ketma-ketlik prinsipi?
7. Izchillik prinsipi?
8. puxta- o`zlashtirishlar prinsipi?
9. Taolim va tarbiyani birgalikda olib boorish prinsipi?
10. Ilmiylik prinsipi?
11. Amaliy yo`langanlik prinsipi?
12. Tushunararlilik prinsipi?
13. Faollik prinsipi?
14. Mustahkamlilik prinsipi?
15. Ko`rsatmalilik prinsipi?
16. Individual yondashu prinsipi?

«Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика» фанидан маъруза матнлари тўплами.

1—Маъруза.

Фанга кириш. Дастрлабки тушунчалар. Эҳтимоллик. Эҳтимолнинг турли таърифлари. Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика фанининг иқтисадий жараёнларни ўрганишдаги аҳамияти.

Эҳтимоллар назарияси фанининг дастрлабки тушунчалари шаклланган давр XVI—XVII асрлар бўлиб, Кардано, Гюйгенс, Паскаль Ферма ва Яков Бернулли каби олимларнинг номлари билан боғлиқдир. Эҳтимоллар назариясининг пайдо бўлишига қимор ўйинларининг математик моделларини ва назариясини яратиш йўлидаги изланишлар турткни бўлди.

Эҳтимоллар назариясининг кейинги ютуқлари Муавр, Лапас, Пуассон каби олимларнинг номлари билан боғлиқ.

Эҳтимоллар назариясининг янги самарали ривожи Чебишев, Марков, Ляпунов каби рус олимларнинг илмий изланишлари билан, боғлиқ бўлди. Фанинг мустақил фан бўлиб уйгулашишида ва кейинги ривожида Бернштейн, Романовский, Колмогоров, Хинчин, Гнеденко, Смирнов ва бошқаларнинг хизматлари катта бўлди.

Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика фанинг ривожида С.Х.Сирохи динов, Т.А.Саримсоқов каби забардаст ўзбек олимларининг ҳам муносиб ҳиссалари бор. Ҳозирги кунда бу икки олимларнинг шоигрлари томонидан Ўзбекистонда ҳам эҳтимоллар назарияси ва математик статистика фани бўйича ҳам назарий ҳам амалий тадқиқотлар давом эттирилмоқда.

Эҳтимоллар назариясининг дастрлабки тушунчалари — тажриба, ҳодиса, элементар ҳодиса. Эҳтимоллик, нисбий частота каби тушунчалар бўлиб, уларни баён қилишга ўтамиз.

Тажриба ҳодисани рӯёбга келтирувчи тайин шартлар тўплами S нинг бажарилишидан иборатdir. Ҳодисани эса тажриба натижаси сифатида қараймиз.

Масалан, тажриба тангани муаян шароитда ташлашдан иборат бўлсин. Танга ва уни ташлаш S шартлар тўпламини ташкил этса, тажриба натижалари танганинг «герб» ёки «рақам» томонлари билан тушиш ҳодисаларидир.

Биз кузатадиган ҳодисаларни уч турга ажратиш мумкин: муқаррар, рўй бермайдиган ва тасодифий ҳодисалар.

Муқаррар ҳодиса деб, тажриба натижасида албатта рўй берадиган ҳодисага айтилади ва биз бундай ҳодисани Ω (омега) ҳарфи билан белгилаймиз.

Мумкин бўлмаган ҳодиса деб, тажриба натижасида мутлаҳо рўй бермайдиган ҳодисага айтилади ва бу ҳодисани \emptyset белгиси билан белгилаймиз.

Тасодифий ҳодиса деб, тажриба натижасида рўй бериш ҳам, рўй бермаслиги ҳам мумкин бўлган ҳодисага айтилади. Тасодифий ҳодисаларни A, B, C, \dots катта лотин ҳарфлари билан белгилаймиз.

Мисол. Ўйин кубиги бир марта ташланади. Бу ҳолда

$\Omega = \{\text{тушган очко б дан катта эмас}\}$ — муқаррар ҳодиса;

$\emptyset = \{\text{тушган очко 10 га тенг}\}$ — мумкин бўлмаган ҳодиса;

$A = \{\text{тушган очко жуфт сон}\}$ — тасодифий ҳодисалардир.

Албатта бу тажрибага мос бўлмаган бошқа кўплаб ҳодисаларни таърифлашимиз мумкин.

Элементар ҳодиса деб, тажрибанинг ҳар қандай натижасига айтилади, ҳамда ω ҳарфи билан белгиланади. Тажриба натижасида рўй бериши мумкин бўлган барча элементар ҳодисалар тўплами элементар ҳодисалар фазоси дейилади. Элементар ҳодисалар фазоси Ω каби белгиланади.

Мисоллар.

1. Тажриба тангани икки марта ташлашдан иборат бўлсин. Бунда элементар ҳодисалар қуийдагича бўлади:

$$\omega_1 = (ee), \omega_2 = (er), \omega_3 = (pe), \omega_4 = (pp)$$

Элементар ҳодисалар фазоси Ω тўрт элементдан иборат:

2. Агар танга уч марта ташланса, у ҳолда

$$\omega_1 = (eee), \omega_2 = (ege), \omega_3 = (erg), \omega_4 = (ppp)$$

$$\omega_5 = (rpe), \omega_6 = (reg), \omega_7 = (rer), \omega_8 = (egr)$$

3. Тажриба ўйин кубигини икки марта ташлашдан иборат бўлсин.

Бу ҳолда $\omega_i = (ij)$ бўлиб, i – биринчи ташлашда тушган очкони билдиради.

$$\Omega = \{\omega_i\}, i = \overline{1,6}, j = \overline{1,6},$$

ва элементар ҳодисалар сони $n = 36$ га teng.

4. Тажриба нуқтани $[\alpha:b]$ кесмага ташлашдан иборат бўлсин. Бунда $\Omega = [\alpha:b]$ тўпламдан иборатdir.

Биз юқорида ҳодисаларни уч турга бўлган эдик. Ўз навбатида тасодифий ҳодисаларни ҳам қуийдаги турларга ажратамиз.

Биргаликда бўлмаган ҳодисалар деб битта тажрибада бирининг рўй бериши қолганларининг рўй беришини йўққа чиқарадиган ҳодисаларга айтилади.

Агар тажриба натижасида бир нечта ҳодисалардан биттаси ва фақат биттасининг рўй бериши муқаррар ҳодиса бўлса, у ҳолда бу ҳодисалар ягона мумкин бўлган дейилади.

Агар бир нечта ҳодисалардан ҳеч бирини бошқаларига нисбатан рўй бериши мумкинроқ дейишга асос бўлмаса, улар teng имкониятли ҳодисалар дейилади.

Бизни қизиқтираётган ҳодисанинг рўй беришига олиб келадиган элементар ҳодисаларни бу ҳодисанинг рўй беришига қулайлик туғдирувчи деб атаймиз.

Эҳтимол тушунчаси асосий тушунчалардан бири бўлиб, унинг бир нечта таърифи мавжуд.

Умумий қилиб айтганда эҳтимол – тасодифий ҳодисанинг рўй бериш имкониятини миқдорий жиҳатдан характерловчи сондир. Қуйида эҳтимолнинг классик таърифини көлтирамиз.

Таъриф. A ҳодисанинг эҳтимоли деб, ҳодиса рўй беришига қулайлик түғдирувчи натижалари сонининг тажрибанинг ягона мумкин бўлган ва teng имкониятли элементар натижалари жаъми сонига нисбатига айтилади, ҳамда

$$P(A) = \frac{m}{n}$$
 формула билан аниқланади.

Эҳтимолнинг классик таърифидан бевосита қуийдаги хоссалар келиб чиқади.

1 – хосса. Муқаррар ҳодисанинг эҳтимоли бирга teng.

Ҳақиқатан ҳам, бу ҳолда $m = n$ ва демак

$$P(\Omega) = \frac{m}{n} = \frac{n}{n} = 1$$

2-хосса. Мумкин бўлмаган ҳодисанинг эҳтимоли нолга teng.

Бу ҳолда $m = n$

$$P(\emptyset) = \frac{m}{n} = \frac{0}{n} = 0$$

3-хосса. Тасодифий ҳодисанинг эҳтимоли ноль ва бир орасида ётувчи сондир.

$$0 < P(A) < 1$$

Ҳақиқатдан ҳам, бу ҳолда $0 < m < n$, шунинг учун $0 < \frac{m}{n} < 1$ ва демак.

Шундай қилиб, исталган ҳодисанинг эҳтимоли қуйидаги муносабатни қаноатлантиради.

$$0 \leq P(A) \leq 1$$

Эҳтимолнинг юқорида келтирлган классик таърифи чекланган бўлиб, ҳамма масалаларга ҳам қўлланилавермайди. Жумладан, элементар натижалари сони чексиз ёки элементар натижалари teng имкониятли бўлмаган тажрибаларда классик таърифни қўллаб бўлмайди.

Шу сабабли классик таъриф билан бир қаторда ҳодисанинг эҳтимоли сифатида нисбий частота ёки унга яқинроқ сонни олиб, статистик таърифдан ҳам фойдаланилади.

Статистик таъриф нисбий частотанинг турғунлик хоссасига асосланади. Бу хосса шундан иборатки, жуда кўп сондаги тажрибалар серияси учун A ҳодисанинг n та тажрибада рўй беришлари нисбий частотаси деб аталувчи $W(A) = \frac{v}{n}$ нисбат деярли ўзгармас миқдор бўлиб қолаверади. Бу ерда, $v - A$ ҳодисанинг n та тажрибада рўй беришлари сони. Нисбий частотанинг турғунлик хоссаси биринчи бор демографик характердаги ҳодисаларда очилган. Бизнинг эрамиздан 2000 йиллар бурун қадимий Хитойда ўғил болалар туғилишлар сонининг жами туғилган болалар сонига нисбати деярли $1/2$ га тенглиги ҳисобланган. Бу соннинг барча даврлар учун ўзгармай қолишини статистик маълумотлар тасдиқлайди.

Нисбий частотанинг турғунлик хоссасига яна бир мисол сифатида танга ташлаш тажрибасини кўрмайз. Танга ташлаш тажрибалари кўп марта ўтказилиб, уларда «герб» томон тушиши сони саналган. Бир нечта тажрибаларнинг натижалари қуйидагича бўлган.

Танга ташлашлар сони	Герб томон тушишлар сони	Нисбий частота
4.040	2.048	0,5069
12.000	6.019	0,5016
24.000	12.012	0,5005

Бу тажрибаларда $W(A)$ нисбий частота ўзгармас $p = 0,5$ сони атрофида тебранаяпти, шу 0,5 сонни танга ташлашда «герб» томон тушиши ҳодисасининг эҳтимоли сифатида олиш табиийдир.

Умуман, агар тажрибалар сони етарлича кўп бўлиб, шу тажрибаларда қаралаётган A ҳодисанинг рўй бериш нисбий нисбий частотаси – $W(A)$ бирор ўзгармас $P \in [0 : 1]$ сон атрофида турғун равишда тебранса, шу P сонни A ҳодисанинг рўй бериш эҳтимоли деб қабул қиласиз. Бундай усулда аниқланган эҳтимол ҳодисанинг статистик эҳтимоли дейилади.

Баъзан геометрик мулоҳазаларга асосланган масалаларда эҳтимолнинг геометрик таърифи қўлланилади. Ушбу таърифни баён қилишга ўтамиз.

Бирор G соҳа берилган бўлиб, бу соҳа g соҳани ўз ичига олсин. G соҳага таваккалига ташланган нуқтанинг g соҳага ҳам тушиш эҳтимолини топиш талаб этилсин. Бу ерда Ω элементар ҳодисалар фазоси G нинг барча нуқталаридан иборат ва чексиздир. Шунинг учун, бу ҳолда классик таърифдан фойдалана олмаймиз. Ташланган нуқта G та тушиш эҳтимоли шу g қисмнинг ўлчовига (узунлигига, юзига, ҳажмига) пропорционал бўлиб, g нинг шаклига ва g ни G соҳанинг қаерида жойлашганлигига боғлиқ бўлмасин. Бу шартларда қаралаётган ҳодисанинг эҳтимоли

$$P = \frac{g \text{ нинг ўлчови}}{G \text{ нинг ўлчови}}$$

формула ёрдамида аниқланади. Бу формула ёрдамида аниқланган P эҳтимоллик эҳтимолнинг барча хоссаларини қаноатлантиради.

Мисол. Радиуси R бўлган доира ичига таваккалига нуқта ташланган. Ташланган нуқта доирага ички чизилган:

а) квадрат ичига;

б) мунтазам учбурчак ичига тушиш эҳтимолини топинг. Нуқтанинг ясси фигурага тушиш эҳтимоли бу фигуранинг юзига пропорционал бўлиб, унинг жойлашишига эса боғлиқ эмас деб фараз қилинади.

Ечилиши.

а) Геометрик эҳтимоллар таърифига кўра изланаётган эҳтимоллик

$$P = \frac{\text{квадратнинг юзи}}{\text{доиранинг юзи}} = \frac{2R^2}{\pi R^2} = \frac{2}{\pi}$$

б) Бу ҳолда, мунтазам учбурчак юзи $\frac{3\sqrt{3}R^2}{4}$ эканлигини ҳисобга олсак:

$$P = \frac{\text{учбурчак юзи}}{\text{доирা юзи}} = \frac{3\sqrt{3}R^2}{4\pi R^2} = \frac{3\sqrt{3}}{4\pi}$$

Эҳтимоллар назарияси фани – математик фан бўлиб, унинг предмети бир хил шарт – шароитларда кўп марта такрорланувчи тасодифий ҳодисаларнинг эҳтимолий қонуниятларини ўрганишдан иборат.

Тасодифий ҳодисалар бўйсинадиган қонуниятларни билиш шу ҳодисаларнинг қандай кечишини аввалдан кўра билишга имкон беради.

Эҳтимоллар назарияси фанининг методлари ҳозирги даврда амалиётнинг турли соҳаларида, жумладан иқтисодиёт соҳасида ҳам кенг ва самарали қўлланилмоқда.

Тасодифийлик билан боғлиқ бўлган иқтисодий жараёнларни тадқиқ этишда, бу жараёнларнинг кечишини прогноз қилишда, ҳамда маъкул иқтисодий очимлар қабул қилишда. Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика фанининг аҳамияти каттадир.

Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика фани усуллари макро ва микро – иқтисодиётни режалаштириш ва ташкил этишда, турли технологик жараёнларни таҳдил этишда, маҳсулот сифатини назорат қилишда, оммавий хизмат кўрсатиш назариясида ва бошқа кўплаб соҳаларда ўз тадбиқларини топмоқда.

Ўз – ўзини текшириш учун саволлар.

- Ҳодисанинг турларини айтинг ва уларга доир мисоллар келтиринг.
- Элементар натижага таърифини беринг.
- Тасодифий ҳодисаларнинг турларини айтинг.
- Эҳтимолликнинг классик ва статистик таърифларини келтиринг.
Уларнинг фарқи нимада?
- Нисбий частотанинг турғунлик хоссаси нимадан иборат?
- Геометрик эҳтимол таърифини айтинг.

MAVZU MATEMATIKANI RIVOJLANISH TARIXINING DAVRLARI.

Kirish, vizual mahruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

Vaqti –2 soat	Talabalar soni: 50-60 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Kirish, vizual mahruza
Mahruza mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> Matematikani rivojlantiruvchi kuchlar va uning boshqa fanlar bilan aloqasi. Matematika tarixining materialistik dunyo qarashni shakllantirishdagi roli. Matematika o‘qituvchilari uchun matematika tarixini bilishning axamiyati va roli. Matematikani rivojlanish davrlari.
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Matematika tarixini matematika tahlimidagi o‘rnii hvqidagi bilimlarni o‘quvchilar ongida to‘liq tasavvurni shakllantirish.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - matematika tarixi obhekti va predmeti maqsad va vazifalari, strukturasini tushuntirish; - DTS asosida talabalar bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar bilan tanishtirish; - amaldagi Nizom asosida talabalar o‘quv-biluv faoliyatini nazorat qilish va baholash reyting tizimini tavsiflash; - o‘quv mashg‘ulotlari turlari va shakllari, ularni tashkil etish texnologiyasi haqida axborot berish; - Matematikani rivojlanishining asosiy davrlari. Matematika tarixini bilishning ahamiyati va zaruriyligi. 	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - matematika tarixining obhekti va predmetini izohlaydi; - matematika tarixining umumiy o‘rtta tahlim, akademik litsey, kasb hunar kollejlari matematikasidagi o‘rnini biladi; - fan bo‘yicha talabalar bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni anglaydi; - qo‘p bosqichli reyting tizimiga tavsif beradi; - ilmiy bilishning asosiy usullarini izohlaydi; - “Matematika tarixi” fanining boshqa matematik va tabiiy fanlar bilan o‘zaro aloqasini, uni fanlar ichida tutgan o‘rnini tavsiflaydi. - o‘qituvchilar uchun matematika tarixini bilishning ahamiyati va rolini izohlaydi. - matematika tarixini rivojlantirish davrlarini izohlaydi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Vizual mahruza, blits-so‘rov, bayon qilish, b/bx/b, insert texnikasi
O‘qitish vositalari	Mahruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O‘qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O‘qitish shart-sharoiti	Proektor, kompg‘yuter bilan jihozlangan auditoriya

Mahruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (15 min.)	<p>1. Mavzuni, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar mahlum qilinadi.</p> <p>2. «Matematika tarixi»ning strukturasi bilan tanishtiradi (3-ilova).</p> <p>3. Maiematika tarixidan mustaqil o‘rganish uchun mavzular bilan tanishtirdi.</p> <p>4. Ko‘p bosqichli reyting nazorati talablari bilan tanishtiradi (6,7-ilovalar).</p>	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<p>2.1. Talabalarni ehtiborlarini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - umumtahlim maktab matematikasida matematika tarix elementlaridan foydalanish ahvoli qanday? - kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda matematika tarixi elementlaridan foydalanish qanday? - o‘quvchilar bilimlari qanday nazorat qilinadi va baholanadi? <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mahruzani bayon etishda davom etadi (2-4 slaydlar).</p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga ehtibor qilishni va yozib olishlarini tahkidlaydi.</p>	<p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O‘ylaydi, javob beradi.</p> <p>Javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</p> <p>Tahrifni yozib oladi, misollar keltiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (5 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar ehtiborini asosiy masalalarga qaratadi.(5 slayd)</p> <p>Faoi ishtiroy etgan talabalarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.2.Mustaqil ish uchun vazifa: mahruzalar matnidagi 2-mavzuni insert usulida o‘qib kelishni vazifa qilib beradi (1-2 ilova).</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

1- ilova

График ташкил этувчининг тури, аҳамияти ва хусусиятлари

ИНСЕРТ" жадвали
Мустакил ўқиши вактида олган маълумотларни, эшитган маърузаларни тизимлаштиришни таъминлади; олинган маълумотни тасдиқлаш, аниклаш, четга чиқини, кузатиш. Аввал ўзлаштирган маълумотларни боғлаш кобилиятини шакллантиришга ёрдам беради.

Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришнинг жараёнли тузилмаси

Инсерт жадвалини тўлдириш коидаси билан танишадилар. Алоҳида ўзлари тўлдирадилар.

Ўқиши жараённада олинган маълумотларни алоҳида ўзлари тизимлаштирадилар - жадвал устунларига "киритадилар" матнда белгиланган куйидаги белгиларга мувофик:
“V” - мен билган маълумотларга мос;
“-“ - мен билган маълумотларга зид;
“+” - мен учун янги маълумот;
“?” - мен учун тушунарсиз ёки маълумотни аниклаш, тўлдириш талаб этилади.

2-ilova.

Insert jadvali

V	+	-	?

1-slayd

Reja:

1. Matematika tarixining dasturi va uslubi.
2. Matematikani rivojlantiruvchi kuchlar va uning boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Matematika tarixining materialistik dunyo qarashni shakllantirishdagi roli.
4. Matematika o'qituvchilari uchun matematika tarixini bilishning axamiyati va roli.
5. Matematika tarixini rivojlanish davrlari.

2-slayd

Matematika fanini rivojlanishini asoslari, boshqa fanlarini rivojlanishi kabi, insoniyat faoliyatining amaliy ehtiyojlardan kelib chiqadi. Fanning rivojlanishi bu ishlab chiqarishning shakllanishi bilan asoslanadi."Matematika, boshqa fanlar kabi, odamlarning amaliy ehtiyojlari natijasida vujudga keldi;bular: er maydonining yuzalarini o'lchash, idishlarning sig'imini o'lchash, vaqtini o'lchash va mexanikaning elementlaridir".F.Engelg's.Andi - Dyuring.

Íaqiqatan ham matematikaning turli bo'limlari real dunyoning fazoviy formalarini va miqdoriy munosabatlarini o'rganishda o'zining metodlarining turli tumanligi bilan ajralib tursada, yagonaligi va umumiyligi bilan yaxlit birlashtirib turadi.Matematika fanining mazmuni quyidagicha;

- 1) uning rivojlanish jarayonida yig'iladigan - faktlar;
- 2) faktlar asosida ilmiy tasavvurning shakllanishi - gipoteza. O'z o'rnila bu tajriba orqali tekshiriladi;
- 3) faktlar va tajribalar natijalarini umumlashtirish hamda ularni nazariya va qonunlar ko'rinishiga keltirish;
- 4) nazariya va qonunlarni o'rganish, matematikani o'rganishni xarakterlaydigan umumiy yo'nalishlarni ifodalovchi metodologiyani yaratish.

Bu elementlar doimo o'zaro aloqadorlikda va rivojlanishdadir.Ana shu aloqadorlikni va rivojlanishni o'rganish bizlarni qanday tarixiy davrga olib borishini tushunish, ro'yobga kelish sabablarini aniqlash - aynan mana shu matematika tarixining predmetini ifodalaydi. SHuning uchun matematika tarixi - matematikaning rivojlanishining qonunlarini o'rganuvchi fandir.

Yuqoridagi aytilganlarga asosan matematika tarixi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak.

Birinchidan - matematikani fan sifatida rivojlanishining haqiqiy mazmuni yoritilishini. Bularda matematikaning metodlari, tushunchalari va fikrlari qanday

paydo bo'lganligi, ayrim matematik nazariyalar tarixan qanday dunyoga kelgani yoritilishini. Xalqlarda maolum tarixiy davrlarda matematikani rivojlanishini xarakteri va xususiyatlarini aniqlashni barcha zamondagi ulug' olimlarning qo'shgan hissalarini yoritishni hal qilish.

Ikkinchidan - matematika tarixi matematikani turli-tuman aloqalarini ochishi; jumladan; matematikani odamlarning amaliy ehtiyojlari va faoliyatlar bilan aloqasini, boshqa fanlar rivojlanishi bilan aloqasini ochish, jamiyatning sotsial va iqtisodiy strukturasiga va sinfiy kurashlarga taosirini ochish, xalqlarning olim individining, olimlar kollektivining rolini ochishdan iborat.

Uchinchidan - matematika tarixini o'rganish hozirgi zamon matematikasini mantiqiy mazmunini, rivojlanish dialektikasini va kelajagini to'g'ri tushunishga yordam berishi kerak.

Matematika juda qadimgi fanlardan biri bo'lib dastlabki bosqichlarda o'zaro muomala va mehnat faoliyatlarasi asosida shakllana boshladi. U asta-sekin rivojiana boshladi, yaoni faktlar yig'a boshladi.

Matematika mustaqil fan sifatida vujudga kela boshlaganda uning bundan keyingi rivojlanishiga matematik bilimlarning o'zi ham taosir eta boshladi SHulardan baozilarini qayd etib o'taylik.

- 1) Noyutonning (differentsial va integral xisobining ilk qadamlari) flyuksiyalarni hisoblash usuli darhol mexanikani masalalarini hal qilishni umumiyl metodi darajasigacha ko'tarildi.
- 2) Lagranj algebraik tenglamalarni radikallarda hal qilish problemasini izlaganda tenglama ildizlarini "gruppash masalalarini" qaragan edi. Keyinroq esa E.o'alua gruppalar nazariyasini rivojlantirib, yuqoridaq Problemani hal etdi. So'ng XIX asrda A.Keli gruppaga taorif berdi. S.Li esa uzlusiz gruppalar nazariyasini yaratdi. 1890 yilda E.S.Fedorov gruppalar nazariysi kristollografiyaqata tafbiq etdi. Kozirda esa gruppalar nazariysi kvant fizikasining ilmiy quroliga aylangan.

Bulardan ko'rindiki matematika nafaqat o'z-o'zini rivojlantiradi, balki boshqa fanlarning rivojlanishiga va aksincha boshqa fan yutuklari asosida o'zi ham rivojlanadi.

Matematika metodlarini tabiiy fanlarga tatbiqi;

- 1) U yoki bu hodisani mazmuniga mos keluvchi matematik masalani bayon etish, yaoni matematik modelini vujudga keltirish va uni echishning metodini topish;
- 2) Matematik modelni echish va uning forma va metodlarini takomillashtirish va mantiqiy kamolotga intilish;

So'ngi yillarda fan va texnikaning jadal rivojlanishi (kibernetika, hisoblash texnikasi,...) ekonomika, boshqarish sistemasi, psixologiya, meditsina va boshqa sohalarda matematikaning roli yanada kuchayib ketdi. Matematika tarixi matematikaning rivojlanish jarayonida ko'pdan - ko'p yorqin dalillar bilan bir qatorda qorong'u zulmat davrlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Úaqiqatdan, xam din peshvolari din taolimotiga mos kelmagan har qanday yangilikning yo'q qilishga yoki bo'g'ishga intilganlar. Faqat ayrim olimlarning katta jasoratigina fanni ilgari siljishi uchun imkoniyatlar yaratib bergen.

Jumladan Kopernik va o'aliley, Ulug'bek qismatlari. Yoki XVII asrda Leybnits va Ng'yuton asarlarida cheksiz kichiklar hakida maolumotlar paydo bo'lishi bilan episkop Berklining qattiq tanqidiga uchradi.

Yoki limitlar nazariyasi XIX asr oxiriga qadar qattiq tortishuvlarga sabab bo'lib keldi. Úatto Koshining ishlari ham bunga barham bera olmagan edi.

Yoki N.I.Lobachevskiy ishlari o'limidan so'ng XIX asr oxirida tan olindi. (Ya.Bolg'yai va o'auss ishlari).

Matematikani sotsial-iqtisodiy sohalarga taosirini chuqurroq ko'rabilish uchun uning tarixini turli ijtimoiy formatsiyalar bilan birgalikda qarash kerak.

Qadim davrda fan boylarning ermag'i bo'lgan.

O'rta asrlarda esa fan ko'p jihatdan boy-feodallarning manfaatiga, dinga

bo'ysundirilgan (savdo ishlari, hosil bo'lish, meros bo'lish, o'zga erlarni bosib olish, taosir doiralarni kengaytirish).

Matematika fanida ilg'or va reaktsion kuchlarning kurashi har doim sinfiy xarakterga ega bo'lib kelgan. Ayniqsa tarixiy va filosofik masalalarda bu yaqqol ko'rinish turadi. Keyingi boblarda bu faktga konkret misollar keltirib boriladi.

Demak, matematika tarixini bilish fanni mantiqan va tarixan rivojlanishining asosiy faktlarini va qonunlarini to'g'ri bilish va talqin qilish imkonini beradi, sxolastikani bartaraf etadi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

4-slayd

Matematika tarixida o'zining xarakteri jihatidan bir - biridan tubdan farq qiladigan davrlar mavjud bo'lib, bunday ajratishlar davlatlarda nisbatan , sotsial - iqtisodiy formatsiyalarga nisbatan , buyuk kashfiyotlarga nisbatan va hokazo qarab davrlarga bo'linishi mumkin. SHulardan biri A.N.Kolmogorov taklif etgan variantdir.

U quyidagicha:

I. Matematikaning ro'yobga kelishi.

Bu davr eramizdan oldingi VI - V asrlargacha davom etib, bu paytga kelib matematika mustaqil fan sifatida shakllanadi. Bu davrning boshlanishi esa, o'tmish ibtidoiy davrga qarab boradi. Bu davrda matematika hali fan sifatida shakllanmagan bo'lib, qilingan ishlarning xarakteri asosan kuzatish va tekshirish natijalari asosida materiallar to'plashdan iborat bo'lган.

II. Elementar matematika davri.

Bu davr eramizdan oldingi VI - V asrlardan boshlanib, to hozirgi XVI asrgacha

bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda asosan o'zgarmas miqdorlarga oid masalalar atroflicha o'r ganilgan bo'lib (bularning baozilari o'rta maktab kursiga kiritilgan), matematikaning bundan keyingi rivoji o'zgaruvchi miqdorlarning kiritilishi bilan bo'liq.

III. O'zgaruvchi miqdorlar matematikasi.

Bu davrning boshlanishi o'zgaruvchi miqdorlarning kiritilishi, Dekart analitik geometriyasi vujudga kelishi, Ng'yuton va Leybnits asarlarida differential va integral xisobi tushunchalari paydo bo'lishi bilan xarakterlidir. XVI asrdan to XIX asrgacha davom etgan bu davrda matematika jadal suroatlar bilan rivojlandi, yangi bo'lmlar vujudga keldi. Barcha ilmiy yo'naliishlarning bunday rivoji matematikani hozirgi zamon ko'rinishiga olib kelinishiga sabab bo'ldi. Kozirda biz buni matematikaning klassik asoslari deb yuritamiz.

IV. Kozirgi zamon matematikasi davri.

Bu davrda yangi matematik nazariyalar, matematikaning yangi-yangi tatbiqlari vujudga keldikim, u matematika predmetini mazmunini judayam boyitib yubordi. Bu esa o'z navbatida matematika asosini (aksiomalar sistemasini, isbotlashning mantiqiy usullarini va boshqalar) Kozirgi zamon matematikasining yutuqlari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

5-slayd

Tekshirish savollari:

1. Matematika tarixining dasturi nimalardan iborat?
2. Matematika tarixining uslubi nimplardan iborat?
3. Matematikani rivojlantiruvchi kuchlar va uning boshqa fanlar bilan aloqasini taoriflab bering.
4. Matematika tarixini bilishning ahamiyati va rolini misollarda bayon eting.
5. Matematika tarixini rivojlantirish davrlarini izohlab bering.

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 55-60 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Vizual mahruza
Mahruza mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> Ibtidoiy jamiyatda matematik tushunchalarni paydo bulishi; Son tushunchasini rivojlanishi. Nomerlashning turli sistemalari; O‘nli sanoq sistemasining tarkalishi; Al-Xorazmiyning "Arifmetika" asarining roli; O‘nli kasrlarning paydo bulishi.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Ibtidoiy jamiyatda matematik tushunchalar qanday shakllanganligi, sanoqsistemalarini rivojlantirishi, turli sanoq sistemalar haqida mahlumotlar berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Dastlabki matematik tushunchalarni paydo bo‘lishi. Son tushunchasini paydo bo‘lishi. Nomerlashning turli sistemalari. O‘nli pozitsion sistema. Al-Xorazmiyning “Arifmetika” asarining roli. O‘nli kasrlarni kiritilishi. Matematik tushunchalarni paydo bo‘lishi, va shakllanishi rivojlanishini tarixiy kuzatish. Son tushunchasi va nomerlashni turli sistemalari haqida mahlumotlar berish. Al-Xorazmiyning arifmetika asarining roli. O‘nli kasrlarni paydo bo‘lishi. J.Koshiyning “Arifmetika kaliti” asari haqida mahlumotlar berish.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: -ibtidoiy jamiyatda matematik tushunchalarni paydo bo‘lishi, sanoq sistemalari haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar; -rim va objad sanoqsistemasi haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar; -o‘nli sanoq sistemasining paydo bo‘lishi va Xorazmiyning roli haqida tasavvurga ega bo‘ladilar; -o‘nli kasrlarni paydo bo‘lishi va J. Koshiy haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Mahruza, muammoli holatlarni yechish, blitz-so‘rov, grafik organayzer: klaster, BBB jadval, asosiy tushunchalar jadvali.
O‘qitish vositalari	Proektor, mahruza matni, grafik organayzerlar, doska, bo‘r.
O‘qitish shakli	Individual, frontal, jamoa va juftlikda ishslash.
O‘qitish shart-sharoiti	Proektor va kompg‘yuter, doska bilan tahminlangan auditoriya.

mahruza.	SON TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.
-----------------	--

Axborot, vizual mahruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	talabaning
	o'qituvchining	
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini ehlol qiladi. 1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarni ekranga chiqaradi (1-slayd).	1.1.Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2.Ehtibor beradilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Insert jadvali haqida tushuncha beradi (2-slayd) 2.2. Asosiy kategoriya va tushunchalarni insert jadvaliga tushurishni so'raydi (1-ilova).	2.1.Insert jadvalini to'ldiradi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	3.1. Aytingchi sanoqsistemalari haqida nimalarini bilasiz? (2-4 slaydlar) 3.2. O'nli sanoq sistemasi haqida nimalar bilasiz? (5- slaydlar) 3.3. o'nli kasrlarni pado bo'lishi haqida (6-slaylar)	3.1.Tushunchal arga izoh beradi. Tahriflarni yozib oladi. Mulg'timediali namoyishni tomosha qiladi. 3.2.Yozib oladilar, muhokama qiladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. «Sonli tushunchalar» klasterini tuzishni so'raydi (2-ilova). 4.2. Asosiy kategoriya va tushunchalarni insert jadvaliga qayta tushurishni so'raydi (1-ilova). Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 4.3. Mustaqil ish uchun vazifa: mahruzalar matnidagi 3-mavzuni insert usulida o'qib kelishni vazifa qilib beradi (7-slayd)	4.1.Klaster tuzadi. 4.2.Insert jadvalini qayta to'ldiradi. 4.3.Topshiriqni yozib oladilar.

1- ilova

Инсерт жадвали

График ташкил этувчининг тури, аҳамияти ва хусусиятлари

“ИНСЕРТ” жадвали

Мустақил ўқиши вактида олган маълумотларни, эшитган маърузаларни тизимлаштиришини таъминлади; олинган маълумотни тасдиқлаш, аниқлаш, четга чиқиш, кузатиш. Аввал ўзлаштирган маълумотларни боғлаш кобилиятини шакллантиришга ёрдам беради.

Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришининг жараёнли тузилмаси

Инсерт жадвалини тўлдириш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида ўзлари тўлдирадилар.

Ўқиши жараёнинда олинган маълумотларни алоҳида ўзлари тизимлаштирадилар - жадвал устунларига “киритадилар” матнда белгиланган кўйидаги белгиларга мувоғик:
“V” - мен билган маълумотларга мос;
“-“ - мен билган маълумотларга зид;
“+” - мен учун янги маълумот;
“?” - мен учун тушунарсиз ёки маълумотни аниқлаш, тўлдириш талаб этилади.

2-ilova.

Insert jadvali

V	+	-	?

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ-
Биламан/ Билишни хоҳлайман/ Билиб олдим.
Мавзу, матн, бўлим бўйича изланувчиликни олиб бориш имконини беради.
Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил килиш кўникмаларини ривожлантиради.

Жадвални тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида /кичик гурухларда жадвални расмийлаштирадилар.

“Мавзу бўйича нималарни биласиз” ва “Нимани билишни хоҳлайсиз” деган саволларга жавоб берадилар (олдиндаги иш учун йўналигирувчи асос яратилади). Жадвалнинг 1 ва 2 бўлимларини тўлдирадилар.

Маърузани тинглайдилар, мустақил ўқийдилар.

Мустақил/кичик гурухларда жадвалнинг 3 бўлимни тўлдирадилар

2-slayd

Qadim tosh asrida (poleolit davri) odamlar hali g'orlarda yashagan va hayoti hayvon hayotidan deyarli farq qilmaydigan davrdan boshlab, odamlar ov quollarini tayyorlash, o'zaro aloqa vositasi bo'lган tilni vujudga keltirish borasida, keyinroq esa o'ziga e'tibor berishi (rasmlar, figurkalar, bezaklar va boshkalar). Yashash uchun nematlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi, erni ishlay boshlashi boshqacha aytganda tabiatga nisbatan insonning aktivligini oshishi (neolit davri 15 ming yil) sonli miqdorlar va fazoviy munosabatlarni tushunishda ilgari qo'yilgan qadam bo'ldi.

Yashashni o'troq holga o'tishi (qishloqlar paydo bo'lishi, hayvonlarni o'rgatilishi, ekinlar ekish, mehnat quollarini yaratilishi va boshqalar) bu protsessni yanada tezlashtirdi.

Albatta matematik bilimlarni shakllanishi turli xalqlarda o'ziga xos usullar bilan shakllandi. Lekin shunga qaramasdan asosiy matematik tushunchalar; son, figura, yuza, natural sonlarning cheksiz davom etishi va boshqalar asosan amaliyot natijasida vujudga keldi va rivojlanish bosqichining uzundan - uzun yo'lini bosib o'tdi.

Son tushunchasini rivojini quyidagi gruppalarga ajratish mumkin;

I. Primitiv ko'rinishdagi miqdoriy munosabatlар (ovni bo'lish, o'zaro ayrboshlash, qo'l va oyoq asosida sanash va ...)

II. Katta sonlarni vujudga kelishi natijasida sanoq sistemalarini keltirib chiqardi (mas. 5 lik, 10 lik, 12 lik, 60 lik). Jumladan IIs (W C Eels) ning tekshirishlariga ko'ra Amerikaning ibtidoiy xalqlarida 307ta sanoq sistemasi mavjud bo'lib, bulardan 147 tasi - o'nlik, 106 tasi - beshlik, qolganlari 12 lik asosga esa bo'lган, Meksikaning mayya va Evropaning kel't qabilarida 20 lik, Ўrta Osiyo va sharq mamlakatlarida 10,12,60 lik sitemalar mavjud bo'lган.

Bundan tashqari uzunliklarni o'lchashda barmoq, oyoq (fut), tirsak (lokaty), quloch va boshqalar mavjud bo'lган.

III. Ko'zirgi zamonda butun dunyoda qabul qilingan nomerlashning o'nli pozitsion sistemasiga o'tishga qadar quyidagi ko'rinishlarni bosib o'tdi.

1. Turli kGrinishdagi ieroglifli pozitsion bGImagan sistemalar.Masalan Misrda, Xitoyda, eski xindiy, atsteklarda, rimda va boshqalar.Masalan rimliklarda bog'lovchi sonlar sifatida I(1), V(5), X(10), L(50), C(100), D(500) M(1000) lar olingan.Boshqa sonlar algoritmik deb atalib, bog'lovchi sonlarning chap yoki Gng tomoniga bog'lovchi sonni yozish bilan (bir necha marta takrorlash mumkin) hosil qilinadi.

Mas. VII, IX, XXX, LXIX, ...

CHapga bittadan ortiq, Gngga ikkitadan ortiq yozish mumkin emas!

2. Alfavitli sanoq sistemasi (abjad hisobi).

Eramizdan avvalgi V asrdan etib kelgan eng qadimgi grek - yunon alfavit sistemasi.

$\bar{\alpha}$, $\bar{\beta}$, $\bar{\gamma}$, $\bar{\delta}$, $\bar{\varepsilon}$, $\bar{\zeta}$ (дигамма), $\bar{\zeta}$ (дзета), $\bar{\eta}$, $\bar{\theta}$

1	2	3	4	5	6	7	8	9
---	---	---	---	---	---	---	---	---

\bar{i} , $\bar{\kappa}$ (каппа), $\bar{\lambda}$, $\bar{\mu}$, $\bar{\nu}$, $\bar{\xi}$, $\bar{\sigma}$, $\bar{\pi}$, \bar{q}

10	20	30	40	50	60	70	80	90
----	----	----	----	----	----	----	----	----

$\bar{\rho}$, $\bar{\sigma}$, $\bar{\tau}$, $\bar{\vartheta}$, $\bar{\phi}$, $\bar{\chi}$, $\bar{\psi}$, $\bar{\omega}$, $\bar{\epsilon}$ (самма)

100	200	300	400	500	600	700	800	900
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----

Misol: $\bar{\theta}\bar{\mu}\bar{\sigma} = 444, \dots$, $\bar{\alpha} - 1000$, $\bar{\beta} - 2000, \dots$

Arab hisobi (abjad hisobi).

Alif	Be	Jim	Dol	Ke	Vov	Ze	Xe	Itqi
	ب	ج	د	ك	ء	ز	ه	ط
1	2	3	4	5	6	7	8	9

yo	Kof	Lom	Mim	Nun	Sin	Aoin	Fe	Sod
ى	ك	ل	م	ن	س	ع	ف	ص
10	20	30	40	50	60	70	80	90

Qof	Re	SHin	Te	Se	Xe	Zol	Zod	Izqi	Taoiin
ق	ر	ش	ت	س	خ	ذ	ض	ظ	غ
100	200	300	400	500	600	700	800	900	1000

Mas. 12 = ب ى avval 10 ni Gng tomoniga 2 ni yoziladi

539 = ل ث ط 4000 = د ع (4 va 1000 kGrinishida)

50000 = ع ب (50 va 1000 kGrinishida)

KGrinib turibdiki bu usulda alfavit 9 ta harfdan qilib ajratiladi.Bulardan birinchi 9 tasiga birliklar, 2-9 tasiga Gnlar, 3-9 tasiga yuzlar mos qGyiladi. Bunda har bir harf son kGrinishini olishi uchun maolum belgi qGyiladi.Bulardan tashqari yana qadimgi slavyan, evrey, gruzin, armyan va boshqalar bor.

KGrinib turibdiki alfavitli sistema yozuv uchun qulay, lekin amallar bajarish uchun noqulay.

3. O'nli bGlmagan pozitsion sistemalar.

Bularga Vavilon, indeetslar, mayg'ya qabilasi, hindlarning ikkilik sistemasi kiradi.

O'nli sanoq sistemasi nol bilan birga dastlab eramizdan 500 yil avval Kindistonda vujudga keldi.

Kindlarning matematikaga oid eng qadimgi yodgorliklari eramizdan oldingi VIII - VII asrlarga tGg'ri kelib, bular sanskrit tilida yozilgan diniy kitoblardir. Bularda geometrik yasashlarga oid (saroylar qurish, ibodatxonalar qurish, buddalar yasash ...), doirani kvadratlashning dastlabki urinishlari, Pifagor teoremasining tatbiqlari va buning natijasida Pifagor sonlarini topishga doir arifmetik masalalar echish va boshqalar. Sanoq sistemasi avval boshdan Gnlik sistemada ishlatalina boshladi. Xususan katta sonlarni tuzish va ular ustida amallar bajarish odad tusiga kirgan. Jumladan qadimiy afsonaga qaraganda Buddha Gnli sanoq sistemasida 10^{54} gacha bGigan sonlarni tuzgan va ularning har bir razryadiga mos nomlar qGygan. Yoki boshqa bir afsona (Er xudosini ishqida musobaqalashgan Sarvatasidda) maxraji 100 bGigan geometrik progressiyaning 10^{7+9*48} - hadini yaoni 421 ta nol bilan tugaydigan sonni hosil qilganligi haqida sGz boradi.

Yoki boshqa misol $b_1 = 3$, $q = 5$, $S = 22888183593$ bGigan geometrik progressiyaning hadlari sonini topish masalasi (Bxaskara "Lilovati" asari).

O'nli sanoq sistemasi (nol bilan) va sonli simvolikani ishlab chiqish va rivojlantirish bilan birga hindlar cheksiz katta sonlar haqida ham tasavvurga ega bGiganlar. Jumladan Bxaskara Akarg'ya $\frac{a}{0}$ kGrinishdagi ifodaga izoh berib, uni son ekanligini, lekin unga qanday katta sonni qGshganimizda yoki ayirganimizda ham Gzgarmaydi deb tushuntiradi.


Xitoya matematik tushunchalarni paydo bGlishi Xitoy matematika tarixchisi Li Yanning tasdiqlashiga kGra e.o. XIV asrga tGg'ri keladi. Dastlabki matematikaga oid maolumotlar chjou - bi (quyosh soati) va matematikaga oid 9 kitob (matematika v devyati knigax) asarlardir. Bu asarlar eramizning boshida (e.o. 152 y. olim CHjan TSan) paydo bGlib, bungacha bGigan Xitoydag'i matematikaga oid barcha maolumotlar jamlangan. Jumladan bu asarda ieroglifli simvolika bilan berilgan Gnli sanoq sistemasi haqida ham maolumotlar bor. Sonlar sinflarga bGlinib, har birida tGrttadan razryad bor. Nol esa yGq bGlib, faqat XII asrda paydo bGigan (qindlardan Gzlashtirilgan bGisa kerak). Arifmetik amallar esa sanoq taxtasida bajarilib, nolni Grni bGsh qoldirilib ketgan.

Misrda matematikaga oid bGigan maolumotlar 1858 yili Raynda (Rhind) papirusining Gqilishidir. U Londonda saqlanayotgan bGlib, taxminan uzunligi -5,5 metr eni - 32 sm bGlib, 84 ta amaliy ahamiyatga ega bGigan masala jamlangan. Ikkinchisi katta yodgorlik Moskvada bGlib, Axmes papirusi deb ataladi. Uzunligi Gshanday bGlib, eni 8 sm ga teng, 25 ta masala bor. Birinchisi e.o. 1650 yilga tegishli bGlib, 1882 yili V.V.Babinin ruscha sharxini bergen. Ikkinchisi e.o. 1850 yilga tegishli bGlib, sovet akademiklari B.A.TGraev va V.V.Struve tomonidan Gqilgan va Grganilgan. Maolum bG`lishicha Misrliklar e.o. 4000 yillar davomida matematikani amaliy ishlari bilan shug'ullanganlar. Ularga Gnlik va 60 lik sanoq sistemalari tanish bGigan. Jumladan Gnli sanoq sistemasi ieroglifli bGlib, bog'lovchi sonlar 10^k larga maxsus belgilar qGyilgan. Algoritmik sonlar esa bog'lovchi sonlarning kombinatsiyasi asosida tuzilgan.

Umuman olganda Gnli sanoq sistemasini paydo bGlishi, shakllanishi va rivojlanishi turli xalqlarda turlich raqamli kechdi.

O'nli sanoq sistemasining bundan keyingi rivoji kGp jixatdan Islom dinining vujudga kelishi va 641 yili Bag'dod xalifaligini Grnatilishi bilan bog'liq.

Taxminan 773 yili al - Fazari xindlarning "Siddxanti" (300 – 400 yillar) asarini arab tiliga tarjima qiladi (saqlanib qolgan "Surg'ya" qismi).



9.1593 yil Belgiyalik Roumen tenglamasini: $x^{45}-45x^{43}+945x^{41}-12300x^{39}+\dots - 3795x^3+45x=A$ echishni 8) ga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki:

1. XVI asr oxiriga kelib algebra tenglamalar haqidagi fan sifatida shakllandi.
2. Trigonometriya astronomiyadan ajralib chiqdi.
3. Gzgarmas miqdorlar matematikasi (sonlar nazariyasi) shakllandi.
4. Son tushunchasi kompleks songacha kengaydi.

XVI asr oxiri va XVII asr boshlariiga kelib, Evropada savdo-sotiqni rivojlanishi, yangidan-yangi mustamlakalarni egallanishi arifmetiklar va injenerlarni xizmatiga ehtiyoj kuchaydi. Bundan tashqari bu davrga kelib matematikaning o`zi amaliy ehtiyoji uchun, jumladan: trigonometrik funktsiyalar jadvalini tuzish, π ning xarakterini aniqlash, aniq mazmundagi tenglamalarni echishning sodda va qulay algoritmlarini topish va shu kabilarga zarurat kuchaydi. Bu sohada ishlagan olimlarni va ularning ishlari bilan tanishaylik.

1. Kopernik (1473-1543), Kepler (1571-1630), Retikus (1514-1576) va ularning shogirdlari tomonidan tayyorlangan katta jadval 6ta trigonometrik funktsiyaning qiymatini har $10''$ da, radius esa 10^{10} ga teng olganlar.

Viet sin1oni hisoblash uchun ichkisi $3*200$ tashqisi $3*2^{12}$ muntazam qo`pburchakdan foydalanadi.

Gollandiyalik Van TSeyman (1539-1610) π ning 20 ta keyinroq 35 ta o`nli xonasigacha hisobladi. Bundan keyin SHenke 700 ta G`nli xonasigacha hisobladi.

2. 1585 yilda Simon Stevin (Bryuggelik) tomonidan o`nli kasrlarni kiritilishi va hisobning hind-arab sistemasiga o`tilishi.

3. SHveytsariyalik I.Byurgi (1552-1632) Pragada Kepler bilan birga ishlagan. U hisoblashlarni engillatish uchun 1603-1611 yillar davomida logarifmlar jadvalini tuzish bilan shug`ullangan.

$$a(1+r)^n \text{ da } a=10^8 \text{ va } r=\frac{1}{10^4} \text{ deb olib, } q_k = 10^8 \left(1+\frac{1}{10^4}\right)^k \text{ (k=0,1,2,...)}$$

geometrik progressiyaning hadlariga 0, 10, 20 . . . arifmetik progressiya hadlarini mos qGydi. Bu logarifmlar va antilogarifmlar jadvalini 1620 yili Keplarning qistovi bilan nashr qildiradi.

Byurgining shoshmasligi unga qimmatga tushadi. CHunki 1614 yili Angliyada "Ajoyib logarifmlar jadvalining tuzilishi" nomli kitobni SHodlandiyalik Djon Neper (1550-1617) eolon qiladi. Jadval trigonometrik funktsiyalarning 0^0-90^0 dagi har lo qiymati uchun 8 xonali logarifmik jadvali edi. Dastlab Neperda $\log_{10}=1$ edi. Keyinchalik tushunib

$\log 10 = 10^{10}$ va $\log 1 = 0$ deb oladi va ustoz Genri Brig (Londonlik professor (1561-1630) bilan birga 1617 yilda $1-10^3$ gacha sonlarning 8 xonali logarifmik jadvalini, 1624 yilda esa Brig "Logarifmik arifmetika" asarini eolon qiladi. Bunda u 1-20.000 va 90 000-100 000 gacha sonlarning 14 xonali logarifmik jadvalini beradi.

Kurinib turibdiki 100 yilcha vaqt o'tmasdan logarifmlar jadvali deyarli butun dunyoga tarqaldi.

4. Boshqa yG`nalishda olimlar hisoblash mashinalari bilan shug'ullana boshladilar. Eng birinchi hisob mashinasini (1623) nemis professori Vilg'gelm SHikkard yaratdi. Bu mashina haqidagi maolumot 1985 yili Kepler arxividan topilgan. SHunga ko'ra bu mashina tor doiradagi olimlarga maolum bo`lgan. SHuning uchun ham birinchi hisob mashinasi arifmometri 1642 yili Blez Paskalg' (1623-1662) ixtiro qilgan deb kelinadi. Keyinchalik 1674 yilda Leybnits buni takomillashtiradi. SHunga qaramay hali bu mashinalarning amaliy ahamiyati past edi. 1874 yili Peterburglik injener Odner maxsus qurilma-Odner g`ildiragini kashf etgandan keyin keng qo'llanila boshlandi.

5. Algebraik tenglamalarning sonli echimlarini topish uchun turli metodlarni yaratilishidir. Jumladan tenglama ildizlarini taqrifiy hisoblash metodlari. (Ng'yuton, SHturm, interpolatsion metod va boshqalar)

Bularning hammasi va yana juda ko'p yangiliklar XV-XVII asrgacha matematiklarni amaliy maqsadlar yo'lida ochgan ixtirolari va yutuqlari edi.

Tekshirish savollari:

1. Uylonish davri Evropa matematikasi haqida nimalar bilasiz?
2. Rus matematikasi haqida nimalar bilasiz?
3. Son tushunchasi qanday kengayadi?
4. Hisoblashlarning yangi metodlarini izoxlab bering.

MATEMATIKA RIVOJLANISHINING UCHINCHI DAVRI. O'ZGARUVCHI MIQDORLAR MATEMATIKASI. MAHRUZA MASHG'ULOTLARI TEXNOLOGIYASI

Vaqti – 2soat	Talabalar soni: 55-60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual mahruza
Mahruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. XVI-XVII asrlardagi ilmiy revolyutsiya. 2. Gzgaruvchi miqdorlar matematikasi. 3. Analitik geometriyani vujudga kelishi. 4. Matematikaning boshqa sohalarini rivojlanishi. 5. Differentsial va integral hisobining dastlabki kurtaklari: B.Kavelg'eri, P.Ferma, B.Paskalg', Dj. Vallis, I.Borrou. 6. Ng'yuton va Leybnitsning differentsial va integral hisobi. 7. Ng'yuton hayoti va ijodi, izdoshlari. 8. Leybnits hayoti va ijodi, izdoshlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: XVI-XVII asrlarda matematika rivojlanishi, o'zgaruvchi miqdorlarni kiritilishi va matematikani turli bo'limlarini shakilanishi va difrensial va integral hisobini kashf etilishi to'g'risida mahlumotlar berish.

<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - 16-17 asrlarda ilmiy revolyutsiya. Tabiiy fanlarni matematikalaشتirish. Kopernik, Kepler, Galiley nazariyalari. - (2 soat). - 16- asrda matematikada o'zgaruvchi miqdorlarni kirib kelishi. Dekart forma Qoyalarning rivojlanishi. Matematikani tabiiy fanlarga kirib borishi. Kapernik, Kepler, Galiley, Ng'yuton va boshqa olimlar ishlari bilan tanishtirish. - XI-XII asrlarda yashab ijod etgan o'rta osiyolik olimlar hayoti va ijodi. Differentsial va integral hisob. Ng'yuton va Leybnits hayoti va ijodi. Differentsial hisobini kashf etilishi, bunda Kepler, funktsiya, Vallis, Borrau, Ng'yuton, Leybnitslarning xizmatlari. <p><i>Adabiyotlar:</i> (1,3) 59,67 b.</p>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - XVI-XVII asrlarda matematika rivoj tarixi haqida tasavvurga ega bo'ladilar; - o'zgaruvchi miqdorlarni kiritilishida Dekart va Ferma ishlari bilan tanishadilar; - diferensial va integral hisobi shakillanish tarixi va Nhyuton-Leybnits ishlari bilan tanishadilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Mahruza, muammoli holatlarni yechish, blits-so'rov, grafik organayzer: klaster, BBB jadval, asosiy tushunchalar jadvali.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, mahruza matni, mustaqil ishlar to'plami, grafik organayzerlar, doska, bo'r.
O'qitish shakli	Individual, frontal, jamoa va juftlikda ishslash.
O'qitish shart-sharoiti	Proektor va kompg'yuter, doska bilan tahminlangan auditoriya.

Axborot, vizual mahruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchining	talabaning

1-bosqich. Kirish (5 min.)	<p>1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o‘quv natijalarini ehlol qiladi.</p> <p>1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarni ekranga chiqaradi (1-slayd).</p>	<p>1.1.Eshitadilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2.Ehtibor beradilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (65- min.)	<p>XVII asrga kelib Yevropada matematikani rivojlanish holati bilan tanishtirish; Dekart analitik geometirasi (2-ilova).</p> <p>Yangi bo‘limlarni shakillanishi va bunda olimlarni rolini ochish (3-slayd)</p> <p>Diferensa va integral hisobini shakllanishi (4-slayd)</p> <p>Nhyuton va Leybints diferensal va integral hisobinikashf etilish tarixini sharxlash (5-slayd).</p>	<p>2.1.Insert jadvalini to‘ldiradi.</p>
3-bosqich. Yaakuniy (5 min.)	<p>3.1. Quyidagi savolni o‘rtaga tashlaydi: Ayting-chi, mulohaza, dizhyunktsiya, konhyunktsiya, implikatsiya, ekvivalentsiya, inkor amali deb nimaga aytildi? Ana shu savol bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash uchun (3-7-slaydlar) har bir tushunchaga tahrif beradi. Rostlik jadvalini namoyish qiladi (8-slayd).</p> <p>3.2. Mulohazaviy formula, uning turlari mohiyati bilan tanishtiradi, formulaning rostlik jadvalini tuzish jarayonini tavsiflaydi(9-slayd).</p> <p>3.3. O‘rganilgan mavzuni mustaxkamlash va Nhyuton, Leybnits hayoti va ijodini o‘rganish beriladi.</p>	<p>3.1.Tushunchalarga izoh beradi.</p> <p>Tahriflarni yozib oladi.</p> <p>Mulg’timediali namoyishni tomosha qiladi.</p> <p>3.2.Yozib oladilar, muhokama qiladilar.</p>
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>4.1. Gzgaruvchi miqdorlar matematikasi, Differentsial va integral hisobi</p> <p>4.2. Asosiy kategoriya va tushunchalarni insert jadvaliga qayta tushurishni so‘raydi (1-ilova). Mavzuga xulosa yasaydi. O‘quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi.</p> <p>4.3. Mustaqil ish uchun vazifa: mahruzalar matnidagi 3-mavzuni insert usulida o‘qib kelishni vazifa qilib beradi (2-slayd)</p>	<p>4.1.Klaster tuzadi.</p> <p>4.2.Insert jadvalini qayta to‘ldiradi.</p> <p>4.3.Topshiriqni yozib oladilar.</p>

Инсерт жадвали

График ташкил этувчининг тури, ахамияти ва хусусиятлари

“ИНСЕРТ” жадвали

Мустақил ўқиш вақтида олган маълумотларни, эшитган маъruzаларни тизимлаштиришни таъминлайди; олинган маълумотни тасдиқлаш, аниклаш, четга чиқиши, кузатиши. Аввал ўзлаштирган маълумотларни боғлаш кобилиятини шаклантиришга ёрдам беради.

Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришнинг жараёнли тузилмаси

Инсерт жадвалини тўлдириш коидаси билан танишадилар. Алоҳида ўзлари тўлдирадилар.

Ўқиш жараёнида олинган маълумотларни алоҳида ўзлари тизимлаштирадилар - жадвал устунларига “киритадилар” матнда белгиланган куйидаги белгиларга мувофик:
“V” - мен билган маълумотларга мос;
“-“ - мен билган маълумотларга зид;
“+” - мен учун янги маълумот;
“?” - мен учун тушунарсиз ёки маълумотни аниклаш, тўлдириш талаб этилади.

2-ilova.

Insert jadvali

V	+	-	?

3-ilova

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ-

Биламан/ Билишни хоҳлайман/ Билиб олдим.
Мавзу, матн, бўлим бўйича изланувчиликни олиб бориш имконини беради.
Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Жадвални тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида /кичик гурухларда жадвални расмийлаширадилар.

“Мавзу бўйича нималарни биласиз” ва “Нимани билишни хоҳлайсиз” деган саволларга жавоб берадилар (олдиндаги иш учун йўналтирувчи асос яратилади). Жадвалнинг 1 ва 2 бўлимларини тўлдирадилар.

Маъruzani тинглайдилар, мустақил ўқидилар.

Мустақил/кичик гурухларда жадвалнинг 3 бўлимни тўлдирадилар

Reja:

1. XVI-XVII asrlardagi ilmiy revolyutsiya.
2. Gzgaruvchi miqdorlar matematikasi.
3. Analitik geometriyanı vujudga kelishi.
4. Matematikaning boshqa sohalarini rivojlanishi.

XVII asr boshiga kelib algebra, trigonometriya, geometriya hamda hisoblashning turli usullari sohasida shu darajada kGp maolumotlar tGpladiki, bular fan va texnikaning ilmiy rivojiga zamin tayyorlaydi. Matematikaning metodlari tabiyot fanlariga jadal kirib bordi. Jumladan 1609-19 yillarda Kepler tomonidan planetalar harakatining qonunini ochilishi va uni matematik formulalarini berilishi, 1632-38 yillarda Galiley tomonidan jismning tushish qonunini matematik ifodalanishi, 1686 yilda Ng'yuton tomonidan butun olam tortilishi qonuning ochilishi va matematik ifodasini berilishi va boshqa kGplab faktlar tabiat qonunlarini matematika tilida bayon etishga olib keldi. Matematik metodlarining universalligi shu davr olimlarining butun fikrini band qildi. Yakka holda ishlagan olimlar Grniga ilmiy jamiyatlar kela boshladi. Birinchi Akademiyaga 1560 yili Neapolda asos solindi. So'ng 1603 yili Rimda Akademiya tashkil qilindi. 1662 yili London qirollik jamiyati, 1666 yili Parij akademiyasi va boshqalar. 1665 yili Londonda va Parijda, 1682 yilda Leyptsigda davriy ravishda jurnallar chiqa boshlaydi.

Xullas XVII asrda matematika fani shu darajada tarmoqlanib ketdiki, xozirgi zamon fani boshlanishi shu erdan boshlanadi.

Dekart va Ferma asarlarida analitik geometriya-geometrik oboektlarning Glchovi, shakli va hossalari sonlar munosabatlari orqali ifodalash shakllandi, koordinatalar metodining ishlatalishi. 1665-66 yillalarda I.Ng'yuton insholarida “Flyuksiyalar nazariyasi” nomi bilan differenttsial va integral hisobi, 1682-86 yillarda Leybnitsning differenttsial hisobi eolon qilindi. Matematik analiz paydo bGlishi bilan mexanika va fizika masalalari differenttsial

tenglamalar yordamida yozila boshlandi. Funktsional analizning boshlang'ich formasi-variatsion hisobi shakllana boshlandi.

1604 yili Kepler Egrilik radiusi formulasini, 1673 yili evolyuta va evolg'ventaning matematik ifodasini Gyuygens berdi.

J.Dezarg (1593-1662), B.Paskal (1623-1662) asarlarida perspektiva va proektiv geometriya shakllandi. Ya.Bernulli (1654-1705) asarlarida extimollar nazariyasi shakllanadi. Nihoyat elementar matematikaning belgilari va logarifmni kashf etilishi bGldi.

Yuqoridagi faktlarning hali tGla bGlmagan rGyxati shuni kGrsatadiki, matematikaga differentsiyal va integral hisobining kirib kelishi, harakat tushunchasini kirib kelishi, uni dialektik nuqtai nazardan qarashga olib kelishi, bularning hammasi matematikaga Dekartning Gzgaruvchi miqdorlari paydo bGlishi bilan asoslanadi. Bularning hammasi matematikada sifat Gzgarishi bilan birga uning mazmunini Gzgarishiga olib keldi.

Endi ana shu fakt bilan bat afsil tanishaylik.

R.Dekart (1596-1650, Frantsiya) matematikada tub burilish yasagan "Metod haqida mulohazalar" (1637 y) asarning muallifi, diniy kollejni bitiradi. Birinchi navbatda ong va qatoiy deduktsiyani tan oluvchi ratsional fikrlari bilan hamda materialistik dunyo qarashi bilan katolik dini aqidalariga qarshi chiqadi. Natijada 1629 yili Nederlandiyaga ketadi. Bu erda protestantlar bilan chiqisha olmay 1649 yili SHvetsiyaga keladi.

R.Dekartning matematika haqidagi fikri quyidagicha: Materianing tabiatini-uning uch Glchovligidadir; uning muhim hossalari-bGlinishligi va harakatlanuvchiligidir. Materianing ana shu hossalari matematikada aks etishi kerak. U universal fan bGlib, tartib va Glchov bilan bog'liq hamma narsani Gz ichiga olishi kerak. Matematikaning butun tarkibi yagona pozitsiyada qaralmog'i va yagona metod asosida Grganilmog'i lozim; fanning nomi esa ana shu umumiylidka aks etmog'i kerak" deydi. SHunga kGra u matematikani "Universal matematika" deb nomlaydi. Mana shu fikrlarini u 1637 yilda eolon qilgan "Metod haqida mulohazalar" asarida amalga oshiradi. Bu bGlimning asosiga quyidagi ikki fikr:

1. Gzgaruvchi miqdorni kiritish.
2. Koordinata Gqini kiritilishi qGyilgan.

Gzgaruvchi miqdorni u ikki xil formada ishlataladi:

- a) egri chiziq bGylab harakat qiluvchi nuqtaning koordinatasi kGrinishida;
- b) koordinata kesmasining nuqtalariga mos keluvchi sonli tGplamning Gzgaruvchi elementi sifatida qaraydi.


Bu bilan Dekart Gz zamonasigacha bGlgan olimlarning bir yoqlama chegaralanganliklarini bartaraf etdi. Endi unda x^2 , x^3 , xu lar kesmalar sifatida qaraladi. Algebraik tenglamalar - sonlar orasidagi munosabatni ifodalovchi vosita bGldi – bu matematikani abstraktlashuviga tomon katta qadam bGladi, aynan mana shu faktlar algebrlik chiziqlarni talqin etishni umumlashuviga va sharqning algoritmik uslubini qabul qilinishiga olib keldi.

Dekartning algebrlik belgilari hozirgi zamon belgilaridan unchalik farq etmaydi.

$$\text{Masalan } \frac{1}{2}a + \sqrt{\frac{1}{4}aa + \epsilon\epsilon}, \text{ (faqat daraja hali yGq edi)}$$

Kar qanday tenglama $R_n(x)=0$ kGrinishda bGlib, $R_n(x)$ tartiblangan butun koeffitsientli kGphad. $R_n(x)$ ni $x-a$ ga bGlinishidan a- tenglamaning ildizi deb qaraydi va haqiqiy (musbat) va yolg'on (manfiy) deb hisobga oladi. Musbat va manfiy ildizlarni aniqlash uchun Dekart qoidasi va umuman tenglamalar nazariyasi bayon etilgan.

Koordinata Gqini quyidagicha kiritadi:



5-rasm

Koordinata tGgri chizig’ida birlik kesmani kiritish va tGrtinchi proportsional kesmani yasash (hozirgi usulni Gzi) bilan kesmalarni kGpaytirish va bGlish masalasini hal qiladi. Natijada algebrik ildizlarning geometrik obrazlari 1,2,... Grita proportsionallarning yasalishiga keltiriladi.

Yuqorida aytib Gtildiki, Dekartning “Geometriya” asari XVII asr matematikasida tub burilish yasaydi va bundan keyingi rivoji uchun zamin yaratadi. Bu asar algebra yutuqlarini geometriyaga tadbiq etuvchi fan, yaoni analitik geometriyadan dastlabki asar bGldi. SHu asar mazmuni bilan tanishaylik. Asar uch kitobdan iborat bGlib, 1-si “Faqt doira va tGg’ri chiziqdan foydalanib yasaladigan masalalar haqida” kitobida Gzgaruvchi miqdorlar va koordinatalar tGg’ri chizig’i kiritishning umumiy printsiplari berilgandan sGng geometrik chiziqlarning tenglamasini tuzishning qoidalari beriladi, yaoni: biror bir masalani echish uchun avvalo uni echilgan deb qabul qilib, berilganlarini va izlangan chiziqlarni birday harf bilan belgilab, sGngra bularni hech bir farqlamay orasidagi bog’lanishni aniqlash natijasida ikki ifodani topish kerak; bularni bir-biriga tenglash natijasida masalani echilishini beradigan tenglamaga ega bGlinadi deyiladi. TSirkulg’ va chizg’ich yordamida echiladigan barcha geometrik masalalar darajasi 2 dan katta bGlmagan algebrik tenglamalarni echishga keltiriladi. Analitik geometriyaning qoidalarni Dekart umumiy kGrinishda bat afsil bayon etmaydi, balki masalalar echish bilan nomoyish etadi.

Asarning ikkinchi kitobi “Egri chiziqlarning tabiatи haqida” bGlib, bunda turli tartibdagи egri chiziqlar va ularni klassifikatsiyalash hamda hossalarga bag’ishlangan. Barcha egri chiziqlarni Dekart 2 sinfga ajratadi. Birinchisi uzlusiz harakat natijasida yoki ketma-ket bajarilgan harakatlar natijasida (tsirkulg’ va chizg’ich yordamida) hosil bGladigan chiziqlar. Qolgan (ikkinchi) chiziqlarni mehanik chiziqlar (keyinchalik Leybnits bularni transtsentent chiziqlar) deb ataydi. SHunga kGra algebrik chiziqlar qandaydir sharnirli mexanizmlar yordamida yasalishi mumkin deydi va ular algebrik tenglamalar yordamida ifodalanadi deydi (isbotsiz). Kitobning asosiy qismi algebrik chiziqlarga urinma va normalg’ Gtakazishga oid teoremlarga bag’ishlangan.

Asarning uchinchi kitobi “O postroenie telesnx, ili prevosxodyao’ix telesnqe, zadach” deb nomlanadi. Algebraning hamda geometrik Grinlar maolumotlaridan foydalanib tenglamalar echishning umumiy nazariyasini qurishga bag’ishlangan. Jumladan koeffentsentlar qatorida ishora almashinishi qancha takrorlansa-shunga manfiy ildizga ega ekanligini kGrsatadi. Ildizlarni Gzgartirishni taminlovchi almashtirishlarini kiritadi. Eng muhim yutug’idan yana biri ratsional koeffentsentli butun ratsional funktsiyani yana shunday funktsiyalar kGpatmasi kGrinishida tasvirlash masalasini hal qilishdadir. Xususan 3 - darajali keltirilgan tenglama kvadrat radikallarda (tsirkulg’ va chizg’ich yordamida) echilishini isbotlaydi. 4 - darajali tenglamani keltirishni uning kubik rezolg’ventasini keltirish masalasiga olib keladi. Masalan $x^4+rx^2+qx+r=0$ ni

$$(x^2 - yx + \frac{1}{2}y^2 + \frac{1}{2}P + \frac{q}{2y})(x^2 + yx - \frac{1}{2}y^2 + \frac{1}{2}P - \frac{q}{2y}) = 0 \text{ deb, bu erda } u = x^2 \text{ ga nisbatan kubik bGlgan } u^6 + 2ru^4 + (r^2 - 4r)u^2 - q^2 = 0 \text{ orqali aniqlaydi (isbotsiz).}$$

3-, 4- darajali tenglamalarni geometriya vositalari yordamida echishni ikki Grta iroportsional miqdorni va burchakni teng uchga bGlishni yasash masalasiga olib keladi (arabcha usulda).

Kitobni muhokamasini yakunlar ekanmiz, uning bir qator kamchiliklarini sanab Gtaylik.

- 1) faqat algebrik chiziqlar qaraladi;
- 2) chiziqlarni klassifikatsiyasi daraja bGyicha emas;
- 3) algebrik apparatni geometriyaga tadbiqi nihoyasiga etmaydi;
- 4) koordinatalar Gqlari teng kuchli emas;
- 5) chiziqlarning xossalari faqat 1-chorakda Grganilgan.

Dekart bilan bir vaqtida analitik geometriyaga asos solgan olim Frantsiyaning Tuluza shahridan Pg'er Ferma (1601-1665, savdogar oilasidan). Asli Tuluza universitetini yuridik fakulg'tetini bitirgan. BGsh vaqtlarida matematika bilan shug'ullangan. Sonlar nazariyasi, geometriya, cheksiz kichiklar ustida operatsiyalar bajarish va optika sohalarida katta yutuqlarga erishdi. Uning "Tekislikdagi va fazodagi geometrik Grinlar nazariyasiga kirish" asari 1636 yili yozilgan bGlib, 1679 yili eolon qilingan. Bu asarda Ferma analitik geometriya nazariyasini olg'a suradi, yaoni koordinatalar tGg'ri chizig'i va algebrik metodlarni geometriyaga tatbiq etilishini kGrsatadi. Bu asarda u Apolloniyning geometrik Grinlar nazariyasini rivojlantirib, tekislikdagi geometrik Grinlar – tGg'ri chiziq va aylana hamda fazodagi geometrik Grinlar – konus kesmalarini Grganish bGlib, 1-darajali tenglamalarga – tGg'ri chiziq va konus kesmalarga 2- darajali tenglamalar mos kelishini kGrsatadi. Koordinatalar metodi Dekartnikidaka edi.

Dastlab u koordinata boshidan Gtuvchi tGg'ri chiziqning tenglamasi $ax=bu$ kGrinishda ekanligini isbotlaydi, sGngra tGg'ri burchakli koordinatalarda markazi koordinata boshida bGlgan aylana tenglamasini; asimptotalar orqali giperbolani; diametri orqali parabolani; qGshma diametrler orqali ellips tenglamalarini chiqaradi.

1- va 2- darajali tenglamalarni umumiy kGrinishda tekshirib, koordinatalarni Gzgartirish (Gqlarni burish va koordinata boshini siljitsish) natijasida ularni kanonik formaga keltiradi va geometrik izohlashni qulaylashtiradi.

Misol: $2x^2+2xu+u^2=a^2 \Rightarrow (x+u)^2+x^2=a^2$

Yangi Gqlarni tanlaymiz $x+u=0$, $x=0$; u holda yangi koordinatalar $x_1=\sqrt{2}x$, $u_1=x+u$ bGlib, tenglama $\frac{2a^2-x_1^2}{y_1^2}=2$ kGrinishga keladi. Apolloniy bGyicha bu ellips edi $y=mx$, $xy=k^2$, $x^2+y^2=a^2$, $x^2\pm a^2y^2=v^2$.

Fazodagi geometrik Grinlarni analitik geometriya yordamida Grganishda Ferma sirtlarni tekislik bilan kesish usulidan foydalanadi. Afsuski, u bu ishni davom ettirmaydi va unda fazoviy koordinatalar yGq edi.

Biz analitik geometriya elementlarini Gz ichiga olgan asarlardan ikkitasi bilan tanishdik. Qariyb 70 yil davomida bu soha sekinlik bilan rivojlandi.

1658 yili yarim kubik parabola masalasi hal qilindi.

1679 yili F.Lagir (1640-1718) tekislik tenglamasini,

1700 yili A.Paron (1666-1716) sferik sirt va unga urinma tekislik tenglamalarini topdi.

1704 yilda I.Ng'yuton "3-tartibli chiziqlar rGyxati" nomli asarida bu sohani sistemaga keltirib biroz rivojlanirdi.

Klero (1713-1765) fazoda uch Glchovli tGg'ri burchakli koordinatalar sistemasini

kiritdi.

1748 yilda L.Eyler “Analizga kirish” asarida bu sohani hozirgi zamon analitik geometriya kGrinishiga yaqinlashtirdi.

Nomini esa XVIII asr oxirida frantsuz S.Lakrua berdi.

Bu davr matematiklari Gz ishlarida matematikaning yangi va eski turli sohalarini qamrab oldilar. Ular klassik bGlimlarni yangi metodlar bilan boyitish bilan birga ulardan yangi sohalarni va umuman yangi sohalarni kashf etdilar.

Jumladan Ferma Diofantni Grganish bilan qadimgi sohani yangi metodlar bilan boyitdi (sonlar nazariyasi).

Dezarg esa geometriyani yangicha interpretatsiya qilish bilan proaktiv geometriyani ijod etdi.

Ferma, Paskalg’ matematikaning mutlaqo yangi sohasi ehtimollar nazariyasiga asos soldilar.

Endi ularning assoiy ishlari bilan tanishaylik.

1) 1621 yilda Diofant asari lotin tilida chiqadi. Bu kitobni Grgangan Ferma kitob varag’ining chetida bir qancha yozuvlar qoldirgan (1670 yili Gg’li eolon qilgan). $x^n+y^n=z^n$, agar $n>2$ bGlsa, butun musbat sonlar tGplamida echimi yGq (Fermaning buyuk teoremasi).

2-kitobning 8-masalasiga – kvadrat sonni ikkita kvadrat songa ajratish – qarshisiga kubni ikkita kubga, tGrtinchi darajani va hokazo 2 dan katta bGigan darajani shu kGrsakkich bilan ifodalangan ikkita daraja kGrinishida tasvirlash mumkin emas deb yozadi va isbotini joy etmaganini bohonasida keltirmaganini kGrsatadi.

Yana bir joyda $4n+1$ kGrinishdagi tub son faqat birgina usulda ikkita kvadratlarning yig’indisi kGrinishida tasvirlash mumkin. Bu teoremani keyinroq Eyler isbotladi.

Agar r tub, $(a,r)=1$ bGlsa, $a^{r-1}-1:r$ ni isbotlaydi. $x^2-Au^2=1$, A butun va kvadrat emas bGlganda cheksiz kGp butun echimlarga ega bGladi deydi.

2) Lionlik arxitektor Jerar Dezarg 1636 yilda eolon qilgan “Konusni tekislik bilan uchrashganida hosil bGladigan narsalarni tushunish uchun urinish” maqlolasida sintetik geometriyaning asosiy tushunchalaridan baozilari: cheksiz uzoqlashgan nuqta, involyutsiya, qutbdagi munosabatlar va boshqalar haqida gap yuritadi. 1641 yil 16 yashar Paskalg’ konus kesimga ichki chizilgan oltiburchak haqida “Paskalg’ teoremasini” isbotlaydi va bir varaqda eolon qiladi. Bu Dezargga yangi ilhom baxsh etadi. Natijada 1648 yili Dezarg uchburchaklarni perspektiv akslantirish haqidagi teoremasini yangidan bayon etadi. Bu fikrlarning aktualligi va sermahzulligi XIX asrga kelib tGla maonoda ochiladi.

3) Ferma va Paskalg’ (1623-1662) ehtimollar nazariyasining asoschilaridir. Dastlab ehtimollik sug’urta ishlarining rivojlanishi bilan bog’liqdir (Birinchi sug’urta tashkilotlari XIV asrda Italiya, Niderlandiyada paydo bGldi). SHu bilan bir qatorda matematiklar oldiga qimor Gyinlari (karta, ochkoli tosh) bilan bog’liq masalalar qGyladi. Jumladan Kavalg’er de Mers (Gzi ham matematik bGigan) Paskalg’ga “Ochkolar haqida masala” bilan murojat etadi. Buning natijasida u Ferma bilan birgalikda bu va shunga Gxhash masalalar bilan shug’ullanishadi va ular ehtimollar nazariyasining asosiy tushunchalarini hal (1654) etishadi. Parija kelgan Gyugens bundan xabar topadi va masalaga Gzining echimini beradi va 1657 yili chiqqan “Qimor Gyinlaridagi hisoblar haqida” asarida bayon etadi. Bu asar ehtimollar nazariyasiga oid birinchi asardir.

1664 yilda (Glimidan sGng) Paskalg’ uchburchagi 1671 va 1693 yillarda de Vitt va Gelleylar tomonidan tug’ilish va Glish jadvalini eolon qilinishi va aholini joylashish


statistikasi, kuzatishlarni nazariy ishlab chiqish metodlari va boshqalar ehtimollar nazariyasini fan sifatida shakllanishga olib keldi.

Ehtimollar nazariyasining bundan keyingi rivoji Yakob Bernulli(1654-1705) bilan bog'liqdir. 1713 yilda eolon qilingan "Taxmin qilish sanoati" kitobining 1-bGlimida Gyugensning qimor Gyinlari haqida traktati tGliq berilgan keyingi bGlimlarida kombinatorika qaralgan bGlib, Bernulli teoremasi va Paskalg' uchburchagini qarash natijasida Bernulli sonları paydo bGlishi va nihoyat katta sonlar qonunining ochilishi ehtimollar nazariyasini ilmiy fan darajasiga kGtardi.

Dastlab integratsion metodlar bilan tanishaylik. Bu sohadagi dastlabki ishlar 1615 yili Keplerga taaluqli. Metodning mazmuni – aktual cheksiz kichik miqdorlar bilan bevosita amallar bajarishdan iborat.

Butun umri davomida Kopernikning gelotsentrik sistemasini Organish, rivojlantirish va targ'ib qilishga bag'ishlangan, 1609 – 19 yillarda planetalar harakatiga oid bGigan:

- 1) planetalar ellips bGylab harakat qiladi;
- 2) quyosh ularning fokuslaridan birida joylashgan;
- 3) planetalarning radius-vektorlari bir xil vaqt oralig'ida teng sektorial yuzalarni hosil qiladi;
- 4) planetalarning quyosh atrofida aynish vaqtining kvadrati ular orasidagi Grtacha masofalarning kubiga nisbati kabitir.



6-rasm

Bu masalalarni hal etish cheksiz kichik miqdorlardan foydalana bilishni taqozo etardi (sektorialg' yuzalarni hisoblash, Grtacha masofalar ...). Bu metodni u 1615 yilda eolon qilgan "Vino bochkalarining stereometriyası" asarida bayon etadi, yaoni har qanday figura yoki jism cheksiz kichik bGlaklar yig'indisidan tashkil topgan. Masalan, doira cheksiz kGp cheksiz kichik sektorlardan tashkil topgan bGlib, bularni har birini teng yonli uchburchak sifatida qarash mumkin. Bunda hamma uchburchaklar bir xil balandlikka (radius), ularning asoslarining yig'indisi aylana uzunligiga teng deydi.

Bu metodni u uncha bGlmagan geometrik figuralar va jismlarga tadbiq etadi, jami 92 ta. Arximeddan qabul qilingan bu usulni Kepler namunali misollarda kGrsatishi, bu usulni kelajagi porloq ekanligini kGrsatadi. Bu metodni ilmiylik darajasiga kGtarish va doimiy algoritmni ishlab chiqish shu zamon olimlarini Gziga jalb qildi.

Bulardan etarlicha mashxur bGlgani Kavalg'eri printsipi deb nomlanuvchi bGlinmaslar geometriyasidir. Bonaventura Kavalg'eri (1598-1674) G.Galileyning shogirdi, Bolong'ya universitetining professori. Bu fikrni u 1621 yilda aytgan bGlib, 1629 yilda kafedra professorligiga Gtayotganda sistemali ravishda bayon etadi. Bu bGlinmaslar metodini takomillashtirish natijasida 1635 yilda "Uzluksizlarni bGlinmaslar yordamida yangi usulda

bayon etilgan geometriya” kitobini va 1647 yilda “Olti geometrik tajriba” nomli kitoblarini yozdi.

Endi metodning mohiyati bilan tanishaylik.

Dastlab bGlinmaslar metodi tekis figuralar va jismlarning Glchamlarini aniqlash uchun kashf etilgan. Figuralar regula deb ataluvchi yGnaltiruvchi tGg’ri chiziqqa parallel GtkaZilgan tGg’ri chiziq kesmalaridan iborat deb qabul qilinadi. Bu tasavvur qilingan kesmalar cheksiz kGp. Ular juftlar deb ataluvchi ikki urinma orasida joylashgan va bu urinmalar regulaga parallel olingan. Regula sifatida bu urinmalarning birini olish mumkin.

Geometrik jismlar ham shu kGrinishda regula sifatida olingan biror tekislikka parallel Gtgan tekisliklar bGlinmaslar deb olinadi. Bular ham cheksiz kGp bGlib, regulaga parallel bGigan urinma tekisliklar orasida joylashgan. Odatda bularning biri regula sifatida olinadi.

Endi metodning mazmuni bilan tanishaylik.

Tekis figuralar va jismlarning bir-biriga nisbati ularning barcha bGlinmaslarining nisbati kabitidir, agarda bGlinmaslar bir-biriga bir xil nisbatda bGlsa, u holda mos figuralarning yuzalarining (hajmlarining) nisbati Gsha nisbatga teng, yaoni:

$$\frac{S_1}{S_2} = \frac{\sum_{k=1}^{\infty} y_1 k}{\sum_{k=1}^{\infty} y_2 k} = \frac{\int_a^b f_1(x) dx}{\int_a^b f_2(x) dx}, \quad \frac{y_1 k}{y_2 k} = a = \text{const}$$

ixtiyoriy k uchun. U holda $S_1:S_2=k$

Bu teoremani Kavalg’eri bGlinmaslarning darajalarini nisbatiga ham tadbiq etib, $\int_0^a x^n dx, \quad n = 1, 2, \dots, 9$ aniq integralni hisoblash masalalariga olib keldi.

G.Galileyning ikkinchi shogirdi E.Torrichelli (1608-1647) egri chiziqli bGlinmaslarni kiritdi. Metodning mohiyati va mazmuni Kavalg’eriniki kabi.

XVII asrning birinchi yarmiga kelib aniq integral geometrik figuralarni yuzasini va hajmini hisoblash uchun asosiy qurol bGlib qoldi. Faqat nazariyadagi tGliqmasliklarni bartaraf etish qolgan edi.

Bu borada Paskalg’, Ferma, Vallis va Borrou ishlari diqqatga sazovordir. SHular bilan qisqacha tanishib chiqaylik.

Paskalg’ ishlari Kovalg’eri printsipiga yaqin bGlib, u barcha bGlinmaslarning yig’indisini elementar yuzachalarning yig’indisi kGrinishida tushundi. Bu yuzachalar quyidagicha chegaralangan: abtsissa Gqi kesmasi va egri chiziq bilan hamda bir-biriga cheksiz yaqin va bir xil masofada bGigan ordinatalar bilan chegaralangan, yaoni $\sum y dx$.

Ferma esa Paskalg’ dan ilgari ketdi. U bGlishni ixtiyoriy qilib oldi. Natijada $\int_0^a x^n dx$ da n-kasr va manfiy hol uchun hisoblash imkonи bGldi.

$$\text{Jumladan } \int_0^x t^{\frac{p}{q}} dt, \quad p > 0, q > 0.$$

Demak, qaralayotgan yuza [O, X] abstsissa, egri chiziqning ikki eng chekka ordinatasi va $x^p=u^q$ egri chiziqlar bilan chegaralangan. Integrallash intervali koordinatalarida x, ax , $a^2x, \dots, a < 1$ bGigan kesmalarga bGlinadi.

Keyingi operatsiya Δx , u , $y\Delta x$, $\sum y\Delta x$ larni xisoblashga va keyin “polosa”ning enini cheksiz kichraytirishga Gtish bilan geometrik progressiyaning yig’indisini xisoblashga keltiradi.

$$\begin{array}{l} \Delta x \\ y \\ y\Delta x \end{array} \left| \begin{array}{ll} (1-a)x, a(1-a)x, & a^2(1-a)x, \dots \\ x^{\frac{p}{q}}, a^{\frac{p}{q}}x^{\frac{p}{q}}, & a^{\frac{2p}{q}}x^{\frac{p}{q}}, \dots \\ (1-a)x^{\frac{p+q}{q}}, (1-a)a^{\frac{p+q}{q}}x^{\frac{p+q}{q}}, & (1-a)a^{\frac{2p+q}{q}}x^{\frac{p+q}{q}}, \dots \\ \sum y\Delta x = \frac{1-a^{\frac{p+q}{q}}}{1-a^{\frac{p+q}{q}}} x^{\frac{p+q}{q}} \end{array} \right.$$

Polosalar kichrayganda $x^{\frac{p+q}{q}}$ aniqmas bGlishini yGqotish uchun $a = b^q$ almashtirish bajaradi. Natijada

$$\frac{1-a^{\frac{p+q}{q}}}{1-a^{\frac{p+q}{q}}} = \frac{1-b^q}{1-b^{b+q}} = \frac{(1-b)(1+b+b^2 + \dots b^{q-1})}{(1-b)(1+b+b^2 + \dots b^{p+q-1})}$$

$$\text{Limit xolatida } a=1 \Rightarrow b=1 \text{ bGlib, } \sum y\Delta x = \frac{q}{p+q} x^{\frac{p+q}{q}}$$

Xuddi shunga Gxshash $\int_x^\infty x^{-n} \Delta x$ hisoblanadi.

CHeksiz kichiklar ustida algebrik muxokama usulida foydalangan yana bir olim London qirolik jamiyatining asoschisi Oksford universitetining professori Djon Vallis (1616-1703). 1655 yili “CHeksizlar arifmetikasi” asarini eolon qiladi. Bu asarida u Kavalg’eri erishgan natijasini tGliqmas matematik induktsiya yordamida ixtiyoriy butun k uchun chiqaradi, yaoni:

$$\int_0^1 x^m dx = \frac{1}{m+1}$$

Umuman Vallis algebradan analiz tomonga qadam qGygan birinchi matematikdir. U cheksiz qatorlar va cheksiz kGpaytmalar bilan bemalol ish yurita olgan: mavxum ifodalar, manfiy va kasr kGrsatkichlar, $\frac{1}{0}$ Grniga ∞ belgini ishlatish va boshqalar.

$$\frac{\pi}{2} = \frac{2 \cdot 2 \cdot 4 \cdot 4 \cdot 6 \cdot 6 \cdot 8 \cdot 8 \cdot \dots}{1 \cdot 3 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 9 \cdot 9 \cdot \dots} \text{ kGrinishni olgan.}$$

Umuman 1630-1660 yillar orasida ishlagan barcha matematiklar $a^t u^n = b^n x^t$ kGrinishdagi algebrik chiziq bilan bog’liq bGlgan masalalar bilan shug’ullanganlar. Xar biri t butun musbat, sGng manfiy va kasr hollar uchun $\int_0^a x^m dx = \frac{a^{m+1}}{m+1}$ formulani chiqarishgan (turli usullar bilan).

Baozan algebrik bGlmagan chiziqlar ham paydo bGla boshlagan (Dekart, Paskalg’ – “ruleta”).

Endi differentialsial metodlar bilan tanishaylik. Differentsiallash yordamida echiladigan

masalalar:

- 1) egri chiziqqa urinma Gtakazish;
- 2) funktsianing ekstremumlarini topish;
- 3) algebrik tenglamalarning karrali ildizlarini mavjudlik shartlarini topish;
- 4) Xarakat traektoriyasining istalgan nuqtasida tezlikni topish (mexanika masalasi).

Bu borada kGp ishlar qilgan olimlardan: Galiley, Torichelli, Dekart, Ferma

$$\left(\frac{f(x+h) - f(x)}{h} = 0 \right) \text{ Vallis, Borrou va boshqalar. Oxirgisining ishi bilan tanishaylik.}$$

Vallisning shogirdi Isaak Borrou (1630-1677) Kembridj universitetining professori ,1669 yilda “Geometriya va optikadan lektsiyalar” asarini eolon qildi. Bunda u yuzalarga oid masalalar bilan Grinma Gtakazish masalalari Gzaro teskari aloqadorlikda ekanligini geometrik faktlar asosida bayon etadi.Buning mazmuni quyidagicha:

L I K

OF va OE egri chiziqlar berilgan bGlsin.

E va F nuqtalar umumiylab abstsissaga ega.


Egri chiziqlar $DF \times R = S_{ODE}$ yoki $Ry = \int_0^x v \Delta x$

shart bilan bog’langan. U holda urinma osti

DT uchun yoki $DT = R \frac{DF}{DE}$ yoki $R \frac{DF}{DT} = DE$,

yaoni, $R \frac{dv}{dx} = v$. Bu teoremani Borrou ikki

xil usulda isbotlaydi.



1- kinematik usul.

7-rasm

2- geometrik usulda: $DT = R \frac{DF}{DE}$ shartni qanoatlantiruvchi FT tGg’ri chiziq Gtakazilgan. SHu FT tGg’ri chiziq urinma ekanligi isbotlanishi kerak, yaoni tGg’ri chiziqning F atrofidagi nuqtalari egri chiziqdandan bir tarafda yotishini kGrsatishimiz kerak. Egri chiziqning I nuqtasi orqali LJK va JKL tGg’ri chiziqlari OX Gqiga parallel qilib Gtakazamiz. U holda $S_{PDEG} = R \times LF$.

$$\text{SHakldan (yasalishiga kGra)} \frac{LK}{LF} = \frac{DT}{DF} = \frac{R}{DE} \text{ bundan } LK \times DF = RxLF = S_{PDEG} \times OE$$

egri chiziqning monotonligini eotiborga olsak, u holda $S_{PDEG} > < IL \times DE$. QGshaloq belgi u nuqtaning F nuqtiga nisbatan joylanishini aniqlaydi. Demak FT urinma ekan.

SHu natijaga asoslanib Borrou urinma masalasiga teskari bGlgan masalalarni kGplab echadi. Bularning hammasi differentialsal va integral tushunchalarni Gzaro teskari bog’lanishida ekanligini kGrsatadi (kiyin geometrik formada bayon etilgan).

Bu fikrni rivoji tez orada Ng’yuton va Leybnits asarlarida Gz ifodasini topadi. Greklarning va Kfvalg’erining geometrik metodlari hamda Dekart va Vallisning algebrik metodi bilan qurollangan Ng’yuton va Leybnitslar differentialsallash va integrallashning umumiylab abstsissaga ega.

Integral hisobi (flyuksiya nazariyasi)

Flyuksiya nazariyasining muallifi Ng'yuton bu nazariya asosiga quyidagi ikkita masalani qGyadi:

1. Berilgan yGl bGyicha berilgan vaqt momentida xarakat tezligini aniqlash, yaoni matematika tilida flyuentalar orasidagi bog'lanish berilgan bGlsa, flyuksiyalar orasidagi bog'lanishni topish.
2. Berilgan xarakat tezligi bGyicha berilgan vaqt oralig'ida bosib Gtilgan yGlni topish, yaoni matematikada xarakat turlarini abstraktlashtirilgan xoli – Gzgaruvchi miqdorlar. Bular erksiz Gzgaruvchilar bGlib, umumiy tilda flyuksiyalar orasidagi bog'lanishga kGra flyuentlar orasidagi bog'lanishni topish.

Flyuenta nima – uzlusiz mexanik harakat turlarini abstraktlashtirilgan holi – Gzgaruvchi miqdorlardir. Bular erksiz Gzgaruvchilar bGlib, umumiy argument – vaqt – egadirlar.

Flyuksiya nima – flyuentning Gzgarish tezligi, yaoni vaqt bGyicha hosilasi. Flyuksiya Gzgaruvchi bGlgani sababli keyingi flyuksiyalarni qarash mumkin: $y, \overset{\cdot}{y}, \overset{\cdot}{y}, \overset{\cdot}{y}, \dots$

Oniy tezlik-flyuksiyani hisoblash uchun Flyuentning juda kichik Gzgarish-momentini Ng'yuton quyidagicha belgilaydi: vaqt mommenti O, flyuenta momenti $\overset{\cdot}{y} \Rightarrow O \overset{\cdot}{y}$ oniy tezlikni vaqt momentiga kGpaytmasi.

KGrinib turibdiki, 1-masala oshkormas funktsiyani umumiy holda diferentsiallash va natijada tabiat qonuniyatlarining diferentsial tenglamasini chiqarishdan iborat. 2-masala flyuksiya nazariyasidagi teskari masala – differentsial tenglamalarni integrallash masalasidir. Boshqacha aytganda boshlang'ich funktsiyani topish bGlib, bu aniqmas integraldir. 3-masala uchun qoida – funktsiyalarni differentsiallashning algoritmini Ng'yuton bGyicha kGraylik.

Flyuentlar orasidagi bog'lanish $x^3 - ax^2 + axu - u^3 = 0$ berilgan bGlsin. Kar flyuentga uning momenti qGyilgan $\overset{\cdot}{x} 0$ bGlsin: $(x + \overset{\cdot}{x} 0)^3 - a(x + \overset{\cdot}{x} 0)^2 + a(x + \overset{\cdot}{x} 0)(u + \overset{\cdot}{y} 0) - (u + \overset{\cdot}{y} 0)^3 = 0$.

Qavslarni ochib gruppalagandan sGng $(x^3 - ax^2 + axu - u^3) + (3x^2 \overset{\cdot}{x} 0 - 20x \overset{\cdot}{x} 0 + ax \overset{\cdot}{y} 0 + a \overset{\cdot}{x} 0u - 3u^2 \overset{\cdot}{y} 0) + (3x \overset{\cdot}{x} 0^2 - a \overset{\cdot}{x} 0^2 + a \overset{\cdot}{x} \overset{\cdot}{y} 0^2 - 3u \overset{\cdot}{y} 0^2) + \overset{\cdot}{x} 0^3 - \overset{\cdot}{y} 0^3 = 0$.

Birinchi qavs nolg'ga teng (shartga kGra), qolgan hadlarni vaqt momentiga bGlib, 0 qatnashmagan hadlarni olamiz, 0 qatnashgan hadlarni cheksiz kichiklar sifatida tashlab yuboramiz. Natijada: $3x^2 \overset{\cdot}{x} 0 - 2ax \overset{\cdot}{x} 0 + ax \overset{\cdot}{y} 0 + ax \overset{\cdot}{y} 0 - 3u^2 \overset{\cdot}{y} 0 = 0$ flyuksiyalar orasidagi bog'lanishga ega bGlamiz.

Boshqa misol: $Z = \sqrt{ax - y^2}$ u holda $z^2 = ax - y^2$ bGlib:

$$2\overset{\cdot}{z} z = a\overset{\cdot}{x} - 2y\overset{\cdot}{y} \Rightarrow \overset{\cdot}{z} = \frac{a\overset{\cdot}{x} - 2y\overset{\cdot}{y}}{2z} = \frac{a\overset{\cdot}{x} - 2y\overset{\cdot}{y}}{2\sqrt{ax - y^2}}$$
 (murakkab funktsiyani differkntsiallash qoidasiga kGra).

Murakkab vaziyatlarda Ng'yuton funktsiyalarni darajali qatorga yoyib, keyin ularni differentsiallagan.

Flyuksiyalar nazariyasiga teskari bGlgan masala – flyuksiyalar orasidagi maolum munosabatlarga asosan flyuentlar orasidagi munosabatlarni aniqlashdir. Bu masala Gzining

qGyilishiga kGra umumiyligi bGlib, ixtiyoriy differentsiyalni integrallash masalasiiga ekvivalentdir.

Flyuksiyalarni topish natijalarini tekshirish jarayonida Ng'yuton kGplib kvadratura masalalarini ham qiladi va niyoyat Gzgarmas qGshiluvchini zarurligini hal qiladi. SHu bilan birga ixtiyoriy differentsiyalni integrallash natijalari kutilgan natijani bermasligini tez orada sezgan Ng'yuton funktsiyani darajali qatorga yoyish metodidan foydalanadi. Jumladan:

- 1) $(a+b)^n$, n tegishli Q uchun, dan foydalanish;
- 2) kasr-ratsional funktsiyani suratini maxrajiga bGlish;
- 3) nomaolum koeffitsientlar metodidan;
- 4) Gzgaruvchini almashtirish, natijada qatorga funktsiya u emas balki y ga nisbatan qulay tanlab olingan funktsiya qatorga yoyiladi;
- 5) koordinatalar sistemasini almashtirish va boshqalar.

Flyuksiyalar nazariyasiga oid natijalarni u XVII asrning 60-70 yillar oralig'ida ochgan bGlib, 1686-87 yillarda eolon qilgan "Tabiiy filosofiyaning matematik boshlanishi" asarida bayon etadi. Bunday kech eolon qilinishiga sabab cheksiz kichik bilan bog'liq hadlarni tashlab yuborishini asoslash edi. Bu muammodan qutulish uchun uyuqoridagi kitobning birinchi bobida "Birinchi va oxirgi nisbatlar metodi haqida" fikr yuritadi.

Metodning mohiyati: cheksiz kichiklar va limitlar haqida teoramalarni isbotlashdan iborat edi.

Endi qisqacha Leybnits ishlari bilan tanishaylik:

- 1) qatorlar yig'indisini hisoblash (1673 y);
- 2) urinma haqidagi masalani echish, Paskalg'ning xarakteristik uchburchagi va sGnggi elementlarni cheksiz kichiklarga aylantirish;
- 3) urinmaga teskari masala, cheksiz kichik ayirmalarning yig'indisini hisoblash, differentsiyal va integral masalalarining Gzaro teskari ekanligini ochilishi (1676 y);
- 4) qulay belgilashlar sistemasini yaratish.

1684 yili eolon qilingan "Maksimumlar, minimumlar hamda urinmalarni hisoblashning yangi metodi" asarida yuqoridagi masalalarni muvaffaqiyatli hal qildi. Bu asar bor yGg'i 10 bet bGlib, garchi isbotlashlar bGlmasa ham, differentsiyal hisobi matematik tekshirishlar oboekti sifatida namoyon bGladi. Differentsiyallash qoidalari: Gzgarmas miqdorlarni, funktsiyalar yig'indisi va ayirmasi, kGpaytmasi va bGlinmasi, daraja va ildiz berilgan.

1686 yili eolon qilingan maqolasida kGpgina elementar funktsiyalarni integrallash qoidalari berilgan.

Bundan keyiingi ishlarda 1693 yili transsident funktsiyalarni qatorga yoyish bilan integrallash va differentsiyallash; 1695 yilda kGrsatkichli funktsiyani va kGpaytmani ketma-ket differentsiyallash (manfiy kGrsatkichli), 1702 yilda ratsional kasrlarni integrallash qoidalari beradi. Lekin Leybnits ham cheksiz kichiklarga oid masalani tGliqligicha hal qila olmadi.

Yakunida bu yangi metodning avtori Ng'yutonmi yoki Leybnitsmi degan muammoga tGxtaylik.

Ng'yuton avvalroq natijalarga erishgan bGlsa ham (1665-66), keyin (1686-87) eolon qilgan. Uslubi murakkab mexanik uslubdir.

Leybnits avvalroq eolon qiladi (1684) algoritmning va belgilashning qulayligi va aktiv targ'ib qilishi. Uslubi sof geometrik uslub.

Tekshirish savollari:

1. XVI-XVII asrdagi ilmiy revolyutsiya nimadan iborat.
2. Dekart analitik geometriyasini izoxlang.
3. Ferma analitik geometriyasini izoxlang.
4. Matematika kanday shakllandi va rivojlandi.
 1. Differantsial va integral hisobiga olib keluvchi tushunchalarni izohlab bering.
 2. Ng'yutonning differentialsial hisobi qanday?.
 3. Leybnitsning differentialsial hisobi qanday?.
 4. Ng'yuton va Leybnits hayoti va ijodi.
 5. Ularning izdoshlari haqida nimalar bilasiz?.